

“O‘zbekiston temir yo‘llari” DATK
Toshkent temir yo‘l muxandislari instituti

“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrası

Bitiruv malakaviy ish

**Mavzu: “Temir yo‘l transportasi korxonalarida xarajatlarning
buxgalteriya hisobi va tahlili”
 (“O‘ztemiryo‘lkonteyner” OAJ)**

Bitiruvchi : Meliyeva N.T.

Raxbar: Turayev F.K.

Toshkent 2012

Kirish

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotida temir yo'l transporti asosiy tarmoq hisoblanib, yo'lovchilar uchun qulay va samarali sharoitlarni yaratish, yuk aylanmasini oshirish yo'li bilan mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishda "O'TY" DATKning hissasi katta. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011- yil 21 dekabrda "2011-2015 transport va kommunikatsion qurilish infratuzilmasini rivojlantirish to'g'risida"gi qarorida bir qator masalalar ko'rib chiqilgan. Bulardan kompaniyaning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati, investitsion dasturlarga kiritilgan loyihalarni amalga oshirish, qayta tiklash, vagonlarni modernizatsiya qilish, yangi yo'l qurish, mavjudlarini qayta tiklash, yuk va yo'lovchi hajmini samarali oshirish lokomotiv va vagon parklarini yangilash, amaldagi loyihlarni modernizatsiyalash bo'yicha ishlarni davom ettirish, aholiga sifatli xizmat ko'rsatishni ta'minlashdan iborat.

Joriy yilning birinchi yarmida yo'lovchi aylanma 109,9%, yuk aylanma esa 105% oshgan. Kompaniya tomonidan kiritilgan mablag'lardan 67,65 mln AQSH dollar o'zlashtirildi.

Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib Toshkent-Samarqand yo'nalishida yuqori tezlikda yo'lovchi harakatini tashkil qilish maqsadida Talgo (Ispaniya) kompaniyasi bilan ikkita yuqori tezlikdagi yo'lovchi elektropoyezdlarini sotib olish bo'yicha shartnoma tuzilgan bo'lib, unga ajratilgan mablag' 9,98 mln AQSH dollarni tashkil etdi. Bunday texnologiyaning qo'llanishi mamlakat ichida poyezdlar harakati tezligini oshirish, shuningdek yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish darajasini oshirish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari yangi loyihalardan biri bo'lgan "Jizzax- Yangi-Yul" yo'nalishi va "Navoiy-Uchquduq-Sultonuvaystog'-Nukus" yo'nalishlarida elektrlashtirish bo'yicha choralar ko'rildi.

Kompaniyaning boshqarmalari va ishlab chiqarish korxonalari tomonidan lokalizatsiya darajasini oshirish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda. 2012-yilning birinchi choragida kompaniya bo'yicha lokalizatsiya dasturi 20 ta loyihadan iborat

bo'lib, rejaga nisbatan 101% ni tashkil etdi. Chet el kompaniyalari ishtirokida investitsiya loyihalarini amalga oshirish masalalari ko'rib chiqildi. Xususan "Maroqand – Qarshi" temir yo'l uchastkasini elektrofikatsiyalashda OTB (Osiyo Taraqqiyot Banki) "Qarshi-Termiz" va "Maroqand-Navoi-Buxoro" temir yo'l uchastkalarini elektrofikatsiyalashda Yaponiya xalqaro agentligidan mablag'lar jalb qilish kutilmoqda. 2011-2015-yillarda qiymati 2 mlrd AQSH dollar bo'lgan yangi loyihalar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Ulardan biri Xitoyning CNTIC – CIRDLC kompaniyasidan yangi yuk vagonlari va elektrovozlarni sotib olish hisoblanadi, keyinchalik rejalashtirilgan barcha loyihalar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

Amalga oshirilgan barcha loyihalarning va ishlarning bozorda talab mavjud bo'lgan mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni tashkil etish orqali foyda ko'rishdir. Temir yo'l transporti ko'p tarmoqli xo'jalik yurituvchi subyekt bo'lib, uning barcha tarmoqlari o'zaro hamkorlikda ish bajargandagina natijani beradi. Temir yo'l transportining ishida korxonalar yordamchi-ko'makchi faoliyati (YoKF) shunday muhim bo'g'inlardan hisoblanadi. Temir yo'l transportining bu faoliyati o'z mohiyatiga ko'ra, realizatsiya hajmiga ko'ra kichik va o'rta biznesni tashkil etadi. Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratish temir yo'l kompaniyasi uchun qo'shimcha daromad manbai hisoblanadi va YoKFni rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda yakuniy bitiruv malakaviy ishining mavzusi "Temir yo'l korxonasida yordamchi-ko'makchi faoliyatining buxgalteriya hisobi va tahlili" deb nomlanadi va mavzuning dolzarbligi belgilanadi.

Yakuniy bitiruv malakaviy ishining tadqiqot obyekti sifatida "O'ztemiryo'lkonteyner" ochiq aksiyadorlik jamiyati (OAJ) ko'rib chiqiladi.

Yakuniy bitiruv malakaviy ishini yozishdan maqsad temir yo'l korxonalarida yordamchi-ko'makchi faoliyati sohasini o'rganish va tahlil qilishdan iborat. Maqsaddan kelib chiqqan holda mavzuni yoritishda quyidagi vazifalar yechiladi:

1. Yordamchi-ko'makchi faoliyat bo'yicha umumiy nazariy bilimlarni oshirish.

2.Temir yo'l transporti xizmatlari bozorini o'rganish.

3.Korxona YoKFni samarali tashkil etish chora-tadbirlarining taklifi.

Mavzuni yoritish bo'yicha quyidagi qonuniy va me'yoriy hujjatlar axborot manbalari sifatida ko'rib chiqiladi va o'rganiladi.

- „Temir yo'l transporti to'g'rida”gi Qonun;
- „Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi Qonun;
- Buxgalteriya hisobining milliy andozalari;
- Temir yo'l transportiga oid me'yoriy hujjatlar.

Yakuniy bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Kirish qismida tanlangan mavzuning nomi, uning dolzarbligi, yakuniy bitiruv malakaviy ishining tadqiqot obyekti, maqsadi, vazifalari va axborot manbalari aks ettirilgan.

Birinchi bob - “ Korxona buxgalteriya hisobini yuritish xususiyatlari ” deb nomlangan bo'lib, unda korxona buxgalteriya hisobi xususiyatlari, hisob siyosati va moliyaviy-xo'jalik faoliyati ko'satkichalari keltirilgan.

Ikkinchi bob – “Korxona yordamchi-ko'makchi faoliyatining buxgalteriya hisobi” deb nomlangan bo'lib, unda korxona YKFning turlari, buxgalteriya hisobi hamda YoKF tahlili yoritilgan.

Uchinchi bob – “Korxona yordamchi-ko'makchi faoliyatining samaradorligini va rentabelligini hisoblash usullari” to'grisida bo'lib, unda korxona yordamchi-ko'makchi faoliyati samaradorligi va rentabelligi haqida to'xtalib o'tilgan.

Yakuniy bitiruv malakaviy ishining so'ngida mavzu yuzasidan asosiy xulosa va takliflar berilgan.

-

I Bob. Korxona buxgalteriya hisobini yuritish xususiyatlari

1.1.Korxonaning buxgalteriya hisobi va hisob siyosati

“O’ztemiryo’lkonteyner” ochiq aksiyadorlik jamiyati O’zbekiston Respublikasining 1991-yil 19-noyabrdagi «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to’g’risida»gi qonuniga,O’zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo’mitasi 2002-yil 28-iyundagi 186-sonli buyrug’iga asosan «O”ZTEMIRYO’LKONTEYNER» sho’ba temir yo’l konteynerlarni tashish korxonasi asosida qayta tashkil etilgan. Sho’ba korxonaning tarkibiga sakkizta filiallar: Toshkent,Farg’ona,Buxoro,Qarshi, Urganch,Termiz,Andijon,Samarqand filiallari kiradi. Ustavda korxonaning pul munosabatlarini – moliyasini tashkil etishga bevosita ta’sir qiladigan quyidagi asosiy maqsadlari belgilangan:

- yuklash-tushirish ishlarini tashkil etish va yuk hovlilari va konteyner maydonlariga tushirilgan konteynerlardagi yuklarga tijorat operatsiyalarini rasmiylashtirish;

- yuk jo’natuvchilarga va yukni qabul qilib oluvchilarga yuqori sifatdagi xizmatlarni ta’minlash,yuk tashish qo’shimcha hajmlarini jalb etish,jumladan transportda xizmat ko’rsatish majmuasini – jo’natuvchilar buyurtmalarini rasmiylashtirishdan qabul qiluvchilargacha yukni yetkazib berish – joriy etish asosida transportning boshqa turlarini joriy etish;

- transport xizmatlari bozorida marketing tadqiqotlarini olib borish;

- mehnat unumdorligini oshirish bo’yicha chora –tadbirlarni amalga oshirish;

- transport-ekspeditorlik xizmatlarini ko’rsatish;

- «Dezopromivka» stansiyalarining ishlarini tashkil etish;

- bojxona nazoratidan o’tuvchi tovarlarni va tashilayotgan yuklarni saqlash va ular bo’yicha brokerlik operatsiyalarini amalga oshirish;

- yuklarni deklaratsiya qilish va boshqalar.

Korxona o'zining rivojlanishining yo'nalishlarini belgilash va amalga oshirish, ishlab chiqarish-moliyaviy faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha huquqqa va keng imkoniyatlarga ega. «O'TY» DATK va boshqa idoralar, tashkilotlar va korxonalar bilan birgalikda unga rivojlanishning ustivor yo'nalishlarini belgilash, konteyner tashishning, yukni qayta ishlashning va boshqa xizmatlarning qisqa va uzoq muddatli prognozlarini hamda ijtimoiy rivojlanish rejalarini ishlab chiqarish huquqi berilgan. Ustavda ko'zda tutilgan konteyner tashishlarning va boshqa barcha xizmatlarning iqtisodiy samaradorligini va rentabelligini ta'minlashga qaratilgan dasturlarni mustaqil ravishda ishlab chiqaradi va amalga oshiradi. Uning muttaxassislari konteyner tashishlarni, konteynerlardan foydalanish samaradorligini har tomonlama tahlil qilishni amalga oshiradilar, ishlab chiqarish-moliyaviy faoliyatni va «O'ztemiryo'lkonteyner» tarkibiga kiruvchi bo'linmalarning (filiallarning) ishlarida texnologik jarayonlarga rioya qilayotganligini tanlab olish asosida va har tomonlama tekshirishlarni olib borishadi, filiallarni uslubiy, me'yoriy-huquqiy va ma'lumotlar bilan ta'minlashni amalga oshiradilar.

Buxgalteriya hisobi natura va pul ko'rinishida mulk, kapital, majburiyatlar va barcha xo'jalik operatsiyalarining uzluksiz, o'zaro bog'liq va hujjatli aks ettirilishi yo'li bilan yuritiladi.

“O'ztemiryo'lkonteyner” OAJda buxgalteriya hisobini hisob siyosatiga binoan yuritish xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Buxgalteriya hisobini tashkillashtirish, xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishda qonunchilikka asoslanganligi ustidan nazorat qilish bo'yicha javobgarlik “O'ztemiryo'lkonteyner” OAJ rahbariga yuklatiladi;

2. “O'ztemiryo'lkonteyner” OAJ rahbari hisob siyosatining hajmidan kelib chiqib:

a) buxgalteriya xizmatini bosh buxgalter boshchiligidagi tuzilmaviy bo'linma sifatida ta'sis etishi;

b) shartnomaviy asosda jalb etilgan buxgalter xizmatlaridan foydalanishi;

c)shartnomaviy shartlar asosida maxsus buxgalterlik firmasi yoki tarkibiga buxgalteriya hisobi sub'yekti kiruvchi xo'jalik birlashmalarining markazlashtirilgan hisobida buxgalteriya hisobini belgilash;

d)mustaqil ravishda buxgalteriya hisobini yuritishi mumkin.

3. "O'ztemiryo'lkonteyner" OAJ rahbari:

a) ichki hisob va hisobot tizimini ishlab chiqishni;

b) xo'jalik operatsiyalar ustidan nazoratni;

c) to'liq va ishonchli buxgalteriya hisobini;

d) hisob hujjatlarining saqlanishini;

e) tashqi foydalanuvchilar uchun moliyaviy hisobot tayyorlanishini;

f) soliq hisoboti va boshqa moliyaviy hujjatlarning tayyorlanishini;

g) hisobotlarning o'z vaqtida topshirilishini ta'minlab berishi shart.

4.«O'ztemiryo'lkonteyner» OAJ "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatida buxgalteriya hisobinining hisobvaraqlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnomalar" nomli 21-sonli Buxgalteriya hisobi milliy andozasi (BHMA)ga asosan tashish faoliyati xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzilgan ishchi schotlar rejasidan foydalanadi. "O'ztemiryo'lkonteyner" OAJda ishchi schotlar rejasi bo'yicha asosan quyidagi schotlardan foydalaniladi:

- 0100 "Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schotlar";

- 0200 "Asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi schotlar";

- 1000 "Materiallarni hisobga oluvchi schotlar";

- 2000 "Asosiy ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schotlar";

- 2300 "Yordamchi ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schotlar";

- 4100 "Ajratilgan bo'linmalardan olinadigan schotlar";

- 5010 "Milliy valyutadagi pul mablag'lari";

- 5110 "Hisob-kitob schoti";

- 6010 “Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to’lanadigan schotlar”;
- 6110 “Ajratilgan bo’linmalarga to’lanadigan schotlar”;
- 6700 “Mehnat haqi bo’yicha xodimlar bilan hisoblashishni hisobga oluvchi schotlar”;
- 9000 “Asosiy faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi schotlar”;
- 9400 “Davr xarajatlarini hisobga oluvchi schotlar”;
- 9910 “Yakuniy moliyaviy natija” kabi schotlar va boshqalar.

Ishchi schotlar rejasida ko’zda tutilmagan operatsiyalar vujudga kelganida “Moliya va buxgalteriya hisobi” boshqarmasi tomonidan to’ldiriladi. Ishchi schotlar rejasi «O’ztemiryo’lkonteyner» OAJ tomonidan asosiy (tashish) faoliyati bo’yicha bajarilishi majbur bo’lgan hujjat hisoblanadi. «O’ztemiryo’lkonteyner» OAJ schotlardagi analitik kodlarni mustaqil belgilaydi.

5. Buxgalteriya hisobi ikkiyoqlama yozuv usulida hisoblash texnikasi yordamida yuritiladi. «O’ztemiryo’lkonteyner» OAJdagi dastlabki hujjatlar asosan axborot-hisoblash markazining mashina hisoblash stansiyalarida qayta ishlanadi.

6. Xo’jalik operatsiyalarini hisobga oluvchi namunaviy shakllarga ega bo’lmagan dastlabki hujjatlar, shuningdek O’zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to’g’risida”gi Qonunining 9-moddasiga binoan rasmiylashtiriladigan ichki buxgalteriya hisoboti uchun shakllar kompaniyaning “Moliya va buxgalteriya hisobi” boshqarmasi boshlig’i tomonidan tasdiqlanadi.

Qayta ishlanadigan namunaviy shakllarga ega bo’lmagan dastlabki hujjatlar kompaniyaning “Moliya va buxgalteriya hisobi” boshqarmasi bilan kelishilgan holda «O’ztemiryo’lkonteyner» OAJ rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

«O’ztemiryo’lkonteyner» OAJ rahbari o’z buyrug’ida mulkning alohida ko’rinishlarini tasarruf qilish huquqi berilgan shaxslarni, shuningdek, moliyaviy,

hisob va boshqa hujjatlarda birinchi va ikkinchi imzo huquqiga ega bo'lgan shaxslar ro'yhatini beradi.

Xo'jalik operatsiyalari "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunining 9-moddasiga binoan dastlabki hujjatlarning namunaviy va qat'iy belgilangan shakllaridan foydalangan holda rasmiylashtiriladi. Buxgalteriya hujjatlarining o'z vaqtida tayyorlanishi, ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish uchun belgilangan muddatda yetkazib berish, hujjatlardagi ma'lumotlar mazmuni uchun bu hujjatlarni tayyorlagan shaxslar javobgar hisoblanadi. Dastlabki hujjatlar ularni tayyorlagan shaxslar tomonidan imzolanadi. Imzo huquqiga ega bo'lgan shaxslar tomonidan imzolanmagan hujjatlar haqiqiy emas deb topiladi.

«O'ztemiryo'lkonteyner» OAJdagi asosiy vositalar hisobi "Asosiy vositalar" nomli 5-sonli BHMA va boshqa me'yoriy hujjatlarga ko'ra yuritiladi va dastlabki qiymatida kiritiladi.

Asosiy vositalarni kapital, joriy ta'mirlash, shuningdek ularni ish holatida ushlab turish xarajatlari korxona va bo'linmalar xarajatlari bo'lib, asosiy vositalar tannarxiga kiritilmaydi.

«O'ztemiryo'lkonteyner» OAJda asosiy vositalarning barcha turlariga amortizatsiya ajratmalari bir maromli (to'g'ri chiziqli) usul yordamida hisoblanadi. «O'ztemiryo'lkonteyner» OAJ boshqa usullardan foydalanishi ham mumkin. Bunda soliqqa tortish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan me'yorlar qo'llaniladi.

Qiymati eng kam ish haqining 200 baravarigacha bo'lgan asosiy vositalarni (harakatlanuvchi tarkib va avtotransport) hisobdan chiqarish korxona tomonidan mustaqil amalga oshiriladi, bo'linmalar esa yuqori tashkilot bilan kelishgan holda.

Qiymati eng kam ish haqining 200 baravaridan ortiq bo'lgan asosiy vositalarni, shuningdek, harakatlanuvchi tarkib va avtotransportni hisobdan chiqarish kompaniya buyrug'iga ko'ra amalga oshiriladi.

Nomoddiy aktivlar – moddiy-buyumlashgan ko'rinishga ega bo'lmagan, xo'jalik faoliyatida ishlatiladigan va ekspluatatsiyada uzoq muddat davomida (bir

yildan ortiq) xizmat qilishga mo'ljallangan mulkchilik obyektidir. Nomoddiy aktivlar hisobi 7-sonli BHMAga binoan yuritiladi va ularga patentlar, litsenziyalar, intellektual mulk, kompyuter dasturiy ta'minotlari, mualliflik huquqlari, marketing huquqlari, tashkiliy xarajatlar (yangi xo'jalik subyektlarini barpo etish xarajatlari) kiradi.

Nomoddiy aktivlarni qayta baholash aktivning bozor qiymatini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lgandagina o'tkazilishi mumkin.

Nomoddiy aktivning amortizatsiyalanadigan qiymati tizimli ravishda eskirish doimiy summalarini hisoblashning to'g'ri chiziqli usulida taqsimlanadi va quyidagicha hisoblanadi:

- Xizmat qilish muddati besh yildan kam bo'lgan nomoddiy aktivlarga-xizmat qilish muddati bo'yicha;
- Xizmat qilish muddatini aniqlab bo'lmaydigan (ammo "O'TY" DATK faoliyati muddatidan uzoq bo'lmagan) nomoddiy aktivlarga - besh yil.

Tovar moddiy zaxiralarining hisobi 4-sonli "Tovar moddiy zaxiralar" nomli BHMAga ko'ra yuritiladi.

Tovar moddiy zaxiralarga quyidagilar kiritiladi:

- Xomashyo va materiallar, yoqilg'i, taralar, ehtiyot qismlar, qurilish materiallari ko'rinishidagi ishlab chiqarish zaxiralari;
- Inventar va xo'jalik buyumlari;
- Sotishga mo'ljallangan tovarlar.

Materiallarni sotib olish va tayyorlash hisoblari xomashyo va materiallarni hisobga oluvchi (1000) va materiallar qiymatidagi og'ishishlar (1600) hisobvaraqlarda yuritiladi.

Ishlab chiqarishga beriladigan tovar moddiy zaxiralaning haqiqatdagi qiymati FIFO usulida (davr bo'yicha birinchi xaridlar tannarxi bo'yicha) aniqlanadi. Materiallarni tabiiy kamayishi bo'yicha hisobdan chiqarishda qonunchilik bilan o'rnatilgan me'yorlardan foydalaniladi.

“O’TY” DATKning qayerida joylashishidan qat’iy nazar «O’ztemiryo’lkonteyner» OAJning barcha mol-mulki va barcha turdagi moliyaviy majburiyatlari inventarizatsiya qilinadi. Inventarizatsiya har yili 19-sonli BHMAga ko’ra o’tkaziladi.

Inventarizatsiya quyidagi hollarda o’tkazilishi shart:

- Mulk ijaraga berilganda, sotib olinganda, sotilganda, shuningdek, qonunchilikda ko’zda tutilgan davlat korxonasi tshkil etilganda (davlat tasarrufidan chiqarilganda);

- Yillik moliyaviy hisobot to’ldirilishidan oldin (hisobot yilining 1-oktabridan keyin inventarizatsiya qilingan mol-mulkdan tashqari);

- Mol-mulkni qabul qilish– topshirish vaqtida;

- Moddiy javobgar shaxs almashganida.

Shuningdek, korxona va bo’linmalarga tegishli bo’lmagan, ammo buxgalteriya hisobida hisobga olingan (javobgarlik ostida saqlanayotgan, ijaraga olingan, ta’mirlash uchun olingan) ishlab chiqarish zaxiralari va mol-mulkning boshqa shakllari ham inventarizatsiya qilinadi.

Mol-mulk inventarizatsiyasi joylashgan joyi va moddiy-javobgar shaxslar kesimiga qarab o’tkaziladi.

Pul mablag’lari, pul hujjatlari va qat’iy hisobot blanklari inventarizatsiyasi har oyda o’tkaziladi.

Tovar moddiy zaxiralarning yillik inventarizatsiyasi hisobot oyining 1-oktabr holatiga o’tkaziladi.

Inventarizatsiya natijalari u o’tkazilgan oyning hisobida va hisobotida, yillik inventarizatsiya natijalari esa yillik moliyaviy hisobotda aks ettiriladi.

Inventarizatsiya natijalari (ortiqcha yoki kamomad) taqqoslama qaydnomalarda aks ettiriladi. Taqqoslama qaydnomalarda inventarizatsiya natijalarini rasmiylashtirish (kirimi, hisobdan chiqarish, aybdor shaxsga yuklash) ko’rsatilgan. Taqqoslama qaydnoma komissiya a’zolarining barchasi tomonidan imzolanadi.

Kassadagi milliy valyutadagi pul mablag'lari hisobi "Yuridik shaxslarning kassa operatsiyalarini yuritish qoidolari" asosida va 5010 - "Milliy valyutadagi pul mablag'lari" hisobvarag'ida yuritiladi.

Naqdsiz pul hisoblari quyidagilarga binoan amalga oshiriladi:

- "O'zbekiston Respublikasida naqdsiz pul hisoblari to'g'risida"gi Nizomga asosan;

- "O'TY" DATK korxonalari hisob raqamlaridan to'lovlarni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizomga binoan;

- "Markaziy bankning qisqa muddatli kreditlaridan maqsadli moliyalashtirish sxemalari bo'yicha respublika budjetining rejali xarajatlarini moliyalashtirishda foydalanish tartibi to'g'risida"gi Nizomga ko'ra.

"O'ztemiryo'lkonteyner" OAJning moliyaviy-xo'jalik faoliyati bo'yicha hisobot quyidagi yo'nalishlarda tuziladi:

- Buxgalteriya hisobi;
- Statistika hisobi;
- Soliq hisobi.

"O'ztemiryo'lkonteyner" OAJ "O'TY" DATKning korxonalari va ajratilgan bo'linmalari, shuningdek, "O'TY" DATK tarkibiga kiruvchi aksiyadorlik jamiyatlari bilan hisob-kitoblarini 4110 - "Ajratilgan bo'linmalardan olinadigan schotlar" va 6110 - "Ajratilgan bo'linmalarga to'lanadigan schotlar" balans hisobvaraqlarida yuritadi.

Kompaniyaning asosiy faoliyat korxonalari va bo'linmalari bilan kompaniyaning boshqa faoliyati korxonalari o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblar 4120 - "Sho'ba va qaram xo'jalik korxonalaridan olinadigan hisoblar" va 6120 - "Sho'ba va qaram xo'jalik korxonalariga beriladigan hisoblar" hisobvaraqlarida olib boriladi.

Bu hisobvaraqlarda yig'ilgan summalar balans tuzilganida va kompaniyada umumlashtirilganida nazorat qilinadi.

“O’ztemiryo’lkonteyner” OAJni moliyalashtirish ichki o’zaro hisob-kitoblar bo’yicha qarzi bo’lmagan holda 2003-yilning 19-martida Kompaniya raisi tomonidan tasdiqlangan ““O’TY” DATKning korxonalari va bo’linmalarining xo’jalik-moliyaviy faoliyati to’g’risida”gi Nizomiga ko’ra amalga oshiriladi.

Qarzdorlik bo’lgan holda “O’ztemiryo’lkonteyner” OAJ rahbariyati qarzdorlik sabablari ko’rsatilgan va ma’lum muddatga moliyaviy yordam ko’rsatilishi iltimos qilingan doklad taqdim etishlari shart.

Yordamchi-ko’makdosh faoliyatdan olingan daromad va yuridik shaxs bo’lmagan bo’linma xarajatlari o’rtasidagi farq har oyda yuqori tashkilot balansiga o’tkaziladi. Buning natijasida dotatsiya ajratiladi yoki foydasi o’zlashtiriladi.

Xarajatlarni qoplashga ajratilgan dotatsiya 9690-“Moliyaviy faoliyat bo’yicha boshqa xarajatlar” hisobvarag’ida aks ettiriladi. Dotatsiya olinganda 9590-“Moliyaviy faoliyatdan boshqa daromadlar” hisobvarag’ida ko’rsatiladi. Foyda o’zlashtirilganda teskari provodka beriladi.

Ijtimoiy soha korxonalarini moliyalashtirish tasdiqlangan smeta bo’yicha markazlashtirilgan holda amalga oshiriladi.

“O’ztemiryo’lkonteyner” OAJning soliqqa tortilshi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 3-martidagi №108 ““O’TY” DATKning boshqaruvini tashkillashtirishni mukammallashtirish to’g’risida” gi Qarori va O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 5-noyabridagi №378 Qarorlariga kiritilgan o’zgartirishlar asosida markazlashtirilgan holda amalga oshiriladi.

“O’ztemiryo’lkonteyner” OAJ mahalliy budjetga tushadigan soliqlarni mustaqil ravishda hisoblaydi hamda quyidagi soliq va ajratmalarni to’laydi:

- Yuridik shaxslarning foyda solig’i (faqat hisoblanadi);
- Suv resurslaridan foydalanganlik bo’yicha soliq;
- Yer solig’i;
- Mol-mulk solig’i;
- Yagona ijtimoiy to’lov;

- Ishchilarning ish haqidan majburiy sug'urta ajratmalari;
- Individual yig'ilib boriladigan pensiya schotlariga ajratmalar;
- Amaldagi qonunchilik bo'yicha ishchilarning ish haqidan ularning roziligi bilan kasaba uyushmasiga ushlanmalar.

Ushbu soliqlar bo'yicha hisobot shakllari hisob siyosatiga binoan belgilangan muddatda mahalliy soliq inspeksiyasi va "O'TY" DATK "Moliya va buxgalteriya hisobi" boshqarmasiga topshiriladi.

1.2. Korxona moliyaviy-xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlari va ularning tahlili

Bozor munosabatlari sharoitida korxonaning xo'jalik faoliyatini muvaffaqiyatli faqatgina tashabbusni ko'rsatish uchun uning ixtiyorida kerakli bo'lgan moddiy, mehnat va pul resurslari mavjud bo'lgandagina va ularni samarali ishlatish imkoniyatlari qonun va normativ hujjatlarda belgilab qo'yilgandagina mumkin. Shu maqsadlarda «O'ztemiryo'lkonteyner»ga tashabbusni ko'rsatish uchun quyidagidagilarni o'z ichiga oladigan keng imkoniyatlar yaratilgan:

-potensial hamkorlar bilan, jumladan chet el tashkilotlari, ularning O'zbekiston Respublikasidagi vakolatxonalari bilan xizmat aloqalarini amalga oshirish;

-konteynerlarda yuk tashishni rivojlantirish uchun boshqa korxonalarning, tijorat va davlat banklarining, chet el investorlarining mablag'larini jalb etish;

-bitim, shartnoma, kontraktlarni tuzish;

-10-01-son preyskurantda ko'zda tutilgan ishlar va xizmatlar uchun shartnomaviy narxlarni mustaqil o'rnatish.

Korxona ustavida korxonani moliyalashtirishning manbalari sifatida quyidagilar belgilangan:

-«O'TY» DATKning pul mablag'lari, moddiy va boshqa badallari;

-mahsulot, ishlar, xizmatlarni sotishdan va yordamchi-ko'makchi faoliyatdan olingan daromadlar;

- qimmatli qog'ozlardan olingan daromadlar;
- kapital qo'yilmalar,budjetdan qo'shimcha to'lovlar;
- beg'araz va hayriya badallari,boshqa manbalar.

Korxona faoliyatida O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar to'g'risida»gi, «Temir yo'l transporti to'g'risida»gi Qonunlariga,boshqa qonun hujjatlariga,korxona ustaviga, «O'TY» DATKning buyruqlariga,ko'rsatmalariga va farmoyishlariga rioya qiladi.

«O'ztemiryo'lkonteyner»ning ustav fondi uning tarkibiga kiruvchi asosiy faoliyat korxonalarining ustav fondlaridan va bo'linuvchi balansga asosan tashish bo'yicha direksiya ustav fondining bir qismidan tashkil topgan.

Ustavga asosan korxona mustaqil balansga,bank muassasalarida hisob-kitob va boshqa hisob raqamlarga ega,o'zini o'zi qoplash va o'zini o'zi moliyalashtirish asosida faoliyat ko'rsatadi. Mustaqil buxgalteriya va statistika hisobotiga,yumaloq ramzli muhr va burchak shtampiga,firma nomi va firma varaqasiga ega.

Jamiyatning ustav fondi aksiyadorlar tomonidan sotib olingan jamiyat aksiyalarining umumiy qiymatidan tashkil topadi.

Ustav fondining (kapital) qiymati 3366271,0 (uch milliard uch yuz oltmish olti million ikki yuz yetmish bir ming) so'm miqdorida belgilangan bo'lib, 3366271 aksiyaga bo'lingan,shu jumladan:

- davlat ulushi – 51 foiz, 1716798,0 ming so'm, 1716798 dona aksiyaga bo'lingan («O'zbekiston temir yo'llari» DATKsi aktivlariga qo'shiladigan aksiyalar paketi);
- mehnat jamoasi va «O'zbekiston temir yo'llari» DATK xodimlariga – 10 foiz,336627,0 ming so'm, 336627 dona aksiyaga bo'lingan;
- chet el investoriga – 39 foiz, 1312846,0 ming so'm, 1312846 dona aksiyaga bo'lingan.

Korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatida hajm va sifat ko'rsatkichlarini o'ragnish hamda tahlil qilish muhim o'rin egallaydi. Chunki bu ko'rsatkichlarni o'rganish asosida korxona ishlab chiqarish boshqaruvini

takomillashtirish, prognozlash, mehnat motivatsiyasini takomillashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va mahsulot (ish, xizmatlar) realizatsiyasini oshirish mumkin. Korxona faoliyatining asosiy hajm va sifat ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi.

- konteynerlarga yuklar ortish;
- yuklarni ortish-tushirish ishlarining umumiy hajmi;
- o'rtacha sutkada vagonlar tushirish;
- o'rtacha sutkada vagonlar yuklash.

Bu ko'rsatkichlar quyidagi jadvalda tahlil qilingan.

1.1-jadval

Korxona faoliyatining asosiy hajm va sifat ko'rsatkichlari tahlili*

Ko'rsatkichlar	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2011 yil 2009 yilga nisbatan o'zgarish		2011 yil 2010 yilga nisbatan o'zgarish	
				Mutloq (+/-)	Nisbiy (%)	Mutloq (+/-)	Nisbiy (%)
Konteynerlarga yuklar ortish, ming tonna	179,6	395,5	415	235,4	131	19,5	5
Yuklarni ortish-tushirish ishlarining umumiy hajmi, ming tonna	2888	2990	3574	686	23,7	584	20
O'rtacha sutkada vagonlar tushirish, vagon	111	121	132	21	19	11	9
O'rtacha sutkada vagonlar yuklash, vagon	72	85	92	20	27,7	7	8,2

*maanba: Moliyaviy-ishlab chiqarish faoliyati hisoboti (2009-2011 yillar)

Yuqoridagi 1.1-jadvalda korxonaning hajm va sifat ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Bu jadvalni tahlil qilib biz quyidagi natijalarga ega bo'ldik. Jadvaldagi birinchi ko'rsatkich konteynerlarga yuklar ortish 2011-yilda 2009-yilga nisbatan mutloq miqdorda 235,4 ming tonnaga ortgan yoki nisbiy miqdorda oladigan

bo'lsak bu ko'rsatkich 2009-yilga nisbatan 2 baroardan ham ko'proq miqdorda ortgan. Bunga sabab 2009-yilda yuk ortish jarayoni keskin kamayganligi ya'ni ortiladigan yuklarning asosiy qismini tashkil etuvchi paxta mahsulotiga talabning kamayishi ,asosiy buyurtmachilardan biri bo'lgan Xitoy davlatidan oldingi yillarga nisbatan kam miqdorda buyurtma qabul qilingan.

2011-yilda esa konteynerlarga yuk ortish hajmining keskin ortishi yuqoridagi sabab bilan bog'liqdir. 2011-yilda konteynerlarga yuk ortish jarayoni 2010- yilga nisbatan 19,5 ming tonnaga ortgan. Bu raqamni foizda ifodalaydigan bo'lsak, o'sish ko'rsatkichi 5 foiz miqdorida. Bu yuklar ortish jarayoni me'yoriy holatda ekanligidan dalolat beradi.

Jadvaldagi ikkinchi ko'rsatkich yuklarni ortish-tushirish ishlaining umumiy hajmi me'yorda bajarilgan. 2011-yilda bu ko'rsatkich 2009-yilga nisbatan 686 ming tonnaga ortgan. Nisbiy miqdorda oladigan bo'lsak,23,7 foizga ortgan. Endi 2011- yilni 2010- yilga nisbatan o'zgarishini ko'radigan bo'lsak,bu yerda ham ijobiy natijaga erishilganligini,ya'ni yuklarni ortish-tushirish ishlarining umumiy hajmda o'sishga erishilgan. Bu ko'rsatkichni aniq raqamlarda ifodalaydigan bo'lsak,yuklarni ortish-tushirish ishlarining umumiy hajmi o'tgan yilga nisbatan mutloq miqdorda 584 ming tonnaga,nisbiy miqdorda esa 20 foizg ortgan. Demak, yuklarni ortish-tushirish hajmi bir maromda olib borilmoqda.

Jadval ma'lumotlariga nazar tashlaydigan bo'lsak navbatdagi ko'rsatkich sifat ko'rsatkichlaridan biri o'rtacha sutkada vagonlarni tushirish jarayonidir. Bu ko'rsatkich birligi vagonlar soni hisoblanib, 2011-yilda 2009-yilga nisbatan tushirish hajmi 21 ta vagonga ko'paygan. Nisbiy oladigan bo'lsak,bu jarayon 19 foizga ortgan.

2011- yilda 2010 yilga nisbatan esa 11 ta vagonga,nisbiy miqdorda 9 foizga ortganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Bu jarayon bevosita hajm ko'rsatkichi, yuklarni tushirish miqdori bilan bo'g'liq va bu ikkala ko'rsatkich bir-biriga mutanosib ravishda ko'payib borgan.

Keyingi ko'rsatkichimiz dinamikasini tahlil qiladigan bo'lsak, bu ko'rsatkich o'rtacha sutkada vagonlar yuklash bo'lib, 2011 yilda o'rtacha vagonlar yuklash 2009-yilga nisbatan mutloq ravishda 20 ta vagonga ko'paygan. Nisbiy miqdorda ifodalaydigan bo'lsak, ko'rsatkich 27,7 foizga o'sgan. Bu o'sish sur'ati yuqori. Bunga sabab 2009- yilda o'rtacha sutkada vagonlar yuklash kam bo'lgan. Bu ko'rsatkichimiz yuqoridagi konteynerlarga yuklash ortish ko'rsatkichi bilan bo'g'liq. Biz yuqorida sabablarni keltirib o'tdik. 2011-yilga kelib, o'rtacha sutkada vagonlar yuklash 2010-yilga nisbatan quyidagicha ko'paygan. Biz bu yerda ham ijobiy holat, o'sishni ko'rishimiz mumkin, ya'ni mutloq miqdorda 7 ta vagonga, nisbiy miqdorda 8 foizga ortgan.

Quyidagi 1.2-jadvalda korxonaning mehnat ko'rsatkichlari, ya'ni jami kontingent, shu jumladan: yuklash-tushirish ishlari bo'yicha ishchilar, yuklash-tushirish ishlari bo'yicha mehnat unumdorligi, ish haqi fondi, o'rtacha oylik stavkasi so'ngi 3 yil davomida qanday o'zgarganligiga e'tibor qaratamiz.

Korxona faoliyatining mehnat ko'rsatkichlari dinamikasi tahlili*

Ko'rsatkichlar	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2011 yil 2009 yilga nisbatan o'zgarish		2011 yil 2010 yilga nisbatan o'zgarish	
				Mutloq (+/-)	Nisbiy (%)	Mutloq (+/-)	Nisbiy (%)
Jami kontingent,kishi	796	763	810	14	1,7	47	6,1
Shu jumladan: yuklash-tushirish ishlari bo'yicha ishchilar,kishi	202	188	195	-7	-3,5	7	3,7
Yuklash-tushirish ishlari bo'yicha mehnat unumdorligi, kishiga tonna	14297	15904	16699	2402	16,8	795	4,9
Ish haqi fondi,ming so'm	3388679	3914990	4110740	722061	21,3	195750	5
O'rtacha oylik stavkasi,so'm	354761	427587	507498	152737	43	79911	18,6

*Manba: Moliyaviy-ishlab chiqarish hisoboti (2009-2011 yillar)

Bu jadvalimizda biz korxona faoliyatining mehnat ko'rsatkichlarini tahlil qildik. Bu ko'rsatkichlarga batafsil to'xtalib o'tamiz. Demak, jadvaldagi birinchi ko'rsatkich korxonadagi jami kontingent dinamikasiga nazar tashlasak,bu yerda ushbu o'zgaruvchan dinamikaga guvoh bo'lamiz. Jami kontingent 2011- yilda 2009-yilga nisbatan 14 kishiga yoki 1,7 foizga kamayganligini ko'rishimiz mumkin.2011-yilda esa 2010-yilga nisbatan 47 kishiga yoki nisbiy miqdorda

o'tgan yilga nisbatan 6,1 foizga ortganligini ko'rishimiz mumkin. Keyingi ko'rsatkich yuklash-tushirish ishlaridagi ishchilar soni bo'lib,uning o'zgarish jarayoni quyidagicha: yuklash-tushirish ishlaridagi ishchilar soni 2011-yilda 2009-yilga nisbatan mutloq miqdorda 7 kishiga va nisbiy miqdorda 3,5 foizga kamaygan. Endi bu ko'rsatkichni 2011-yilni 2010-yilga nisbatan o'zgarishiga to'xtalamiz. Yuklash-tushirish ishlaridagi ishchilar 2010-yilga nisbatan mutloq miqdorda 7 kishiga ko'paygan yoki yoki nisbiy miqdorda ifodalaydigan bo'lsak 3,7 foizga o'sganligiga amin bo'lamiz. Navbatdagi ko'rsatkich yuklash-tushirish ishlari bo'yicha mehnat unumdorligi bo'lib,u bir kishiga to'g'ri keluvchi tonnada ifodalanadi. Bu ko'rsatkich doimiy ravishda o'sib borganligiga guvoh bo'lamiz. 2011- yilda yilda mehnat unumdorligi 2009- yilga nisbatan 2402 tonnaga ya'ni 16,8 foizga ko'paygan. Bu holat ijobiy hisoblanadi. Bunga sabab korxonada ishchilar soni kamayishi barobarida yuklash-tushirish ishlaridagi ishchilar ham kamaygan,ammo kishi boshiga to'g'ri keluvchi tonna miqdori oshgan. Bu esa mehnat unumdorligi oshganligidan dalolatdir. 2011- yilda 2010-yilga nisbatan 1 kishiga to'g'ri keluvchi tonna mutloq miqdorda 795 tonnaga yoki 4,9 foizga ortganligiga ishonch hosil qilamiz. Bu yerda ishchilar soni ortishi bilan birga mehnat unumdorligi ham ortib borgan. Bu tahlil etilayotgan korxona uchun ijobiy holat sanaladi. Biz yoqorida jami kontingent va mehnat unumdorligini tahlil qilib,endi korxonadagi ish haqi ko'rsatkichiga to'xtalamiz. Ish haqi fondi 2011-yili 2009- yilga nisbatan 722061 ming so'mga yoki 21,3 foizga oshgan. 2011- yili 2010- yilga nisbatan esa bu ko'rsatich 195750 ming so'mga ya'ni 5 foizga ortgan. Demak,ish haqi fondi yildan yilga ortib borgan. Bunga sabab respublikamizda amalga oshirilayotgan islohatlar,xususan,aholi daromadlarini oshirish maqsadida ish haqi miqdorining mutanosib ravishda oshirilib borilishi va bu jarayon korxonada ham izchil tadbiriq etilganligidir. Ish haqi fondini tahlil etganimizdan so'ng,shu yerda o'rtacha oylik stavkasining o'zgarishi,jadvalimizdagi to'rtinchi ko'rsatkichga nazar tashlasak,bu ko'rsatkich bevosita ish haqi fondiga mutanosib ravishda o'zgarib borganligini ko'ramiz. Hisobot yilida 2009-yilga nisbatan

152737 so'mga yoki 43 foizga,2010- yilga nisbatan esa 79911 so'mga yoki foiz hisobida mos raviishda 18,6 foizga o'rganligini ko'ramiz. Bu yerda ham me'yordagi holatni ko'rishimiz mumkin.

Korxona foydasining 2009-2011-yillardagi tahlili quyidagi 1.3-jadval ma'lumotlari asosida qilingan.

1.3-jadval


Korxona foydasining tahlili *

Ko'rsatkichlar	2009-yil	2010-yil	2011- yil	2011 yil 2009 yilga nisbatan o'zgarish		2011 yil 2010 yilga nisbatan o'zgarish	
				Mutloq (-,+)	Nisbiy (%)	Mutloq (-,+)	Nisbiy (%)
Jami daromadlar,ming so'm	20566219	28785883	32225177	11638958	56,6	3499294	12
Jami xarajatlar,ming so'm	11963840	16535040	17361792	5397952	45,1	826752	5
Jami foyda,ming so'm	8602379	12250843	14863385	6261006	72,7	2612542	21

*Manba: korxona buxgalteriya hisobi hisoboti ma'lumotlari

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki,2011-yilda korxonaning jami daromadlari 2009 -yilga nisbatan 11658958 ming so'mga ya'ni 56,6 foizga,2011-yilda esa 2010-yilga nisbatan 3499294 ming so'mga va 12 foizga ko'paygan. Korxonaning jami xarajatlari 2011-yilda 2009-yilga nisbatan 5397952 ming so'mga ya'ni 45,1 foizga oshgan. O'tgan yilga nisbatan esa jami xarajatlar 2011-yilda 826752 ming so'mga yoki 5 foizga oshgan.

Quyidagi 1.4-rasmda ushbu o'zgarishlarning dinamik tahlilini ko'rishimiz mumkin.



1.4-rasm. Korxona moliyaviy faoliyati dinamikasi

Ushbu diagrammadan ko'rinib turibdiki, uchala ko'rsatkich ham yillar davomida o'sib brogan. Jami foyda 2009-yilga nisbatan deyarli 73%ga oshgan bo'lsa, 20110-yilga kelib bu o'sish 21%ni tashkil qilgan, ya'ni o'shish sur'ati pasaygan.

Korxonaning moliyaviy holatini baholovchi koeffitsentlarning hisoblanishi 1.5-jadvalda keltirilgan.

Korxonaning moliyaviy-xo'jalik holatini baholash mezonlari *

Ko'rsatkichlar nomi	Ko'rsatkichlar tavsifi	Hisoblash formulasi	Me'yoriy ko'rsatkichlar
To'lovga qobiliyatlilik ko'effitsenti	To'lov imkoniyatlarining pastligini ko'rsatadi	$K_{\text{ПЛ}} = \frac{A_2 - \text{ПДЗ}}{\text{П2} - \text{ДЗк}}$	$K_{\text{ПЛ}} < 2$
O'zlik va jalb qilingan mablag'lar nisbati	Qisqa muddatli qarz manbalarini o'z mablag'lari bilan qoplash darajasini ko'rsatadi	$K_{\text{cc}} =$	$K_{\text{cc}} < 2$
Moliyaviy mustaqillik ko'effitsenti	Moliyaviy mustaqillikning qisqarishi (kengayishini) ko'rsatadi	$K_{\text{фн}} =$	$K_{\text{фн}} < 0,5$
O'z aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik ko'effitsenti	Aylanma mablag'larning o'z manbalari hisobidan ta'minlanganligini ko'rsatadi	$K_{\text{oc}} =$	$K_{\text{oc}} < 0,1$

*Manba: A.Vahobov, A.Ibrohimov. Moliyaviy tahlil.- Toshkent, 2002-yil

Jadvaldagi shartli belgilar:

A1 – uzoq muddatli aktivlar, balans aktivining 1-bo'limi;

A2 – aylanma aktivlar, balans aktivining 2-bo'limi;

П1 – o'z mablag'larining manbalari, balans passivining 1-bo'limi;

П2 – majburiyatlar, balans passivining 2-bo'limi;

ПДЗ – muddati o'tgan debitor qarzдорlik;

ДЗк – uzoq muddatli qarzlar va kreditlar;

БЖ – balansning aktivi yoki passivi bo'yicha jamisi.

Korxona xo'jalik-moliyaviy holatini baholash mezonlari: 4,6 dan kam bo'lgan taqdirda korxona moliyaviy-xo'jalik holati beqaror deb topiladi. Ushbu ko'rsatkichlardan foydalanib quyidagi 1.6-jadvalda korxonaning moliyaviy holatini aniqlaymiz.

1.6-jadval

Korxonaning moliyaviy holati tahlili*

Ko'rsatkichlar	2009-yil	2010-yil	2011-yil
Uzoq muddatli aktivlar,balans aktivining 1-bo'limi (A1)	6840445	7113112	13877540
Aylanma aktivlar,balans aktivining 2-bo'limi (A2)	17500785	33028948	47641293
O'z mablag'larining manbalari,balans passivining 1-bo'limi (П1)	18272977	25994804	39839326
Majburiyatlar,balans passivining 2-bo'limi (П2)	6068253	14147276	21679507
Muddati o'tgan debitor qarzdorlik (ПДЗ)			
Uzoq muddatli qarzlar va kreditlar (ДЗК)	994471	831955	664007
Balansning aktivi va passivi bo'yicha jami (БЖ)	48682460	80284140	123037666
Кпл	3,45	2,48	2,27
Ксс	3,60	1,95	1,90
Кфн	0,38	0,32	0,32
Кос	0,65	0,57	0,54
Jami	8,08	5,33	5,03

*Manba: korxonaning buxgalteriya hisobi hisobotlari ma'lumotlari

Yuqoridagi 1.6-jadvaldagi hisoblangan korxonaning moliyaviy holati ko'effitsentlari shuni ko'rsatadiki,uzoq muddatli aktivlar va aylanma aktivlar yildan yilga ortib borgan. Shu bilan birga joriy majburiyatlar va o'z mablag'larining manbalari ham ko'payib borganini ko'rishimiz mumkin. Korxonada ish va xizmatlarga talabning ko'payishi hisobiga keladigan daromadlar ortgan. O'z mablag'larining manbalari ustav kapitali,rezerv kapitali va taqsimlanmagan kapital

hisobiga ko'paygan. Korxonaning majburiyatlari asosini xodimlar bilan hisoblashlar, mol yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblar va budjet oldidagi qarzlarni tashkil qilgan.

Korxonaning to'lovga qobiliyatlilik koeffitsenti uchun ijobiy baho berish mumkin, chunki ko'rsatkich ikki birlikdan yuqori ko'rsatkichga ega. Bu esa to'lov imkoniyatlarining yuqoriligini ko'rsatadi. O'zlik va jalb qilingan mablag'lar nisbati koeffitsenti ham belgilangan ko'rsatkichdan yuqori ekanligini ko'rsatib turibdi. Bu esa qisqa muddatli qarz manbalarini o'z mablag'lari bilan qoplash darajasi yetarli ekanligini ko'rsatadi. Moliyaviy mustaqillik koeffitsenti yaxshi bir holatda ekanligini ko'rish mumkin. Bu korxonaning moliyaviy jihatdan kengayganligini belgilab beradi. O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsenti korxona uchun ijobiy baho berish mumkin. Korxona mustaqil aylanma mablag'larini o'z manbalari hisobidan ta'minlay olishini ko'rsatadi.

II Bob.Korxona YoKFning buxgalteriya hisobi

2.1. Korxona YoKFning turlari va buxgalteriya hisobi

Korxona asosiy faoliyat bilan bir qatorda YoKF bilan ham shug'ullanadi. YoKF tashish jarayoninning zaruriyatlarini bajarish bilan bir qatorda bunday ishlab chiqarish chetdagi iste'molchilarning ehtiyojini qondirish orqali qo'shimcha moliyaviy resurslarni shakllantirish maqsadida ishni va turli xil xizmatlarni ham amalga oshiradi. Faqat temir yo'l korxonasi muassasalari va bo'linmalari tomonidan iste'mol qilib bo'lmaydigan mahsulot qismigina realizatsiya qilinadi yoki mahsulot ishlab chiqarish, chetdagi xaridorlarga ishlash va xizmat ko'rsatish uchun qo'shimcha ishlab chiqarish salohiyati mavjud bo'ladi.

Bunday ishlab chiqarishning vazifasi bozorda talab mavjud bo'lgan mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni tashkil etish orqali foyda ko'rishdir.Qo'shimcha va yordamchi-ko'makdosh ishlab chiqarish,qoidaga muvofiq,umumiyishlab chiqarish maydonlarida xuddi shu ishchilardan foydalangan holda amalga oshiriladi va qo'shimcha va yordamchi-ko'makdosh faoliyat o'rtasida aniq chegara o'tkazish imkoniyati deyarli yo'q,uni belgilash uchun bugungi kunda umumiy tushuncha-yordamchi-ko'makdosh faoliyat (YoKF) qo'llaniladi.

‘O'ztemiryo'lkonteyner” OAJ korxonasi ustaviga ko'ra u quyidagi yordamchi-ko'makchi faoliyat turlari bilan shug'ullanadi:

- Konteyner yuk tashish ishlarini amalga oshirish;
- Transport xizmatlari bozorida marketing tadqiqotlarini amalga oshirish;

-Yuk tashish ishlari texnologiyasida boshqaruv tizimini avtomatlashtirilishini tadbiq etish;

-Bojxona yuklarini tashuvchi sifatida yuklarni bir joydan boshqa joyga ko'chirilishiga doir xizmatlar ko'rsatish;

-Bojxona nazorati ostida bir joydan boshqa joyga ko'chiriladigan tovarlar va transportdagi yuklarni saqlash hamda brokerlik operatsiyalarini amalga oshirish;

- Yuklarni deklaratsiyadan o'tkazish;

-MDH va Boltiqbo'yi davlatlari hududlari doirasida konteynerlar parkining rejali asosdagi hisobini va ularni o'z vaqtida qaytarilishi nazorat qilinishini amalga oshiradigan tizimini joriy qilishni tashkil etish;

-Boshqa davlatlarga tegishli bo'lgan konteynerlar parkidan foydalanish ustidan nazorat yuritish va ularni yurt egasi bo'lgan mamlakatlarga o'z vaqtida qaytarilishini tashkil qilish;

-O'zbekiston Respublikasi hududi doirasida va boshqa davlatlarda tarozi egalarining og'irlik o'lchovi asboblari tizimi ustidan idoraviy texnika nazorati yuritilishini amalga oshirish,ularni montaj qilish,ta'mirlash va texnik xizmatlar ko'rsatish;

-Multimodal tashishlarni tashkil qilish;

-Dalaguzar dezostansiyasining ishini tashkil etish;

-Asfaltobitum sexini ishini tashkil etish,o'z ehtiyojlari uchun asfalt ishlab chiqarish va quyish hamda shartnoma asosida boshqa tashkilotlarga sotish;

-Avtotransportlarni joyiga qo'yish,ta'mirlash va texnik xizmatlar ko'rsatish;

-Atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik toza texnologiyalarni tadbiq etish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish;

-Ta'mirlash-ishlab chiqarishga joriy qilish ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan butlovchi asbob-uskanalar,detallar,ehtiyot qismlarni chet eldan keltirilishi va mahalliy ishlab chiqarilishini rivojlantirib borish;

-Xalq iste'moli mollarini ishlab chiqarish;

-Qurilish materiallarini ishlab chiqarish va sotish;

-Transport vositalarining barcha turlari uchun nostandart uskunalarni loyihalashtirish va tayyorlash;

-Qurilish-montaj,qurilish-ta'mirlash,uskunalar bilan qayta jihozlash va boshqa pudrat ishlarini amalga oshirish;

-Loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash va ishlab chiqarish;

-Ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqish va ishlab chiqarishga joriy qilish;

-Montaj qilish va ishga tushirish-sozlash ishlari;

-Maishiy va murakkab elektron hamda orgtexnikaga servis xizmati ko'rsatish;

-Kommunikatsion va kompyuter tizimlarini joylashtirish, sozlash, ta'mirlash hamda servis xizmati ko'rsatish;

-Tijorat va savdo faoliyati;

-Turli xil ishlab chiqarish chiqindilari,ikkilamchi xom-ashyo va maishiy chiqindilarni yarim tayyor mahsulot hamda tayyor mahsulot sifatida yig'ish,sotib olish,qayta ishlash va sotuvga chiqarish;

-Pullik o'qitish kurslarini tashkil etish;

-Marketing,agentlik va boshqa xizmatlarni ko'rsatish;

-Tovar-material boyliklarni yarmarkalar,kim oshdi savdosi orqali bozor tovar aylanmasiga jalb qilish;

-Tijorat do'konlarini tashkil qilish va ishlatish;

-Ko'rgazmalar, kim oshdi savdolari va taqdimot marosimlari,tijorat kompaniyalarini tashkil qilish hamda o'tkazish;

-Qishloq xo'jaligi chorvachilik va parrandachilik mahsulotlarini saqlash,jo'natish va sotuvga chiqarish;

-Umumiy ovqatlanishni tashkil qilish;

-Tashqi iqtisodiy faoliyat;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan taqiqlanmagan va Ustavda ko'rsatilmagan faoliyat turlarini ham amalga oshirishga haqlidir.

Litsenziya olishni talab qiladigan faoliyat turlari ,Jamiyat tomonidan tegishli litsenziya (ruhsatnoma) olingandan keyin amalga oshiriladi. Yordamchi ishlab chiqarish sexlari xarajatlarini hisobga olish bo'yicha asosiy birlamchi hujjatlar quyidagilar:

-asboblari, moslamalar, modellar, press-shakllar, ehtiyot qismlar, idishlarni topshirganligi to'g'risida yuk xatlar;

-ta'mirlangan obyektlar bo'yicha qabul qilish-topshirish dalolatnomalari;

-avtomobillar ishlanganligini tasdiqlovchi yo'l varaqalari;

-yordamchi sexlar xodimlariga ish haqini hisoblash qaydnomalari;

Shuningdek turli hisob-kitoblar, ma'lumotnomalar va izohlar.

Asosiy ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatadigan yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish uchun, yordamchi ishlab chiqarishning har bir turi bo'yicha alohida hisob yuritiladigan 2310-«Yordamchi ishlab chiqarish» aktiv kalkulyatsiya schoti qo'llaniladi. 2310-«Yordamchi ishlab chiqarish» schotining debetida hisobot davri mahsulot ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish, yordamchi sexlar bo'yicha ishlarni bajarish bilan bevosita, shuningdek yordamchi ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish va boshqarish bilan bevosita bog'liq bo'lgan xarajatlar jamlanadi, buni quyidagi 2.1-jadvalda ko'rish mumkin.

2.1-jadval

Yordamchi ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schotlarning bog'lanishi *

Xo'jalik muomalalarining mazmuni	Schotlarning bog'lanishi	
	debet	kredit
1	2	3
Yordamchi ishlab chiqarish sexlarida foydalanilayotgan asosiy vositalarning eskirishi	2310	0211-0299
Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlariga taalluqli nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblandi	2310	0510-0590
Yordamchi ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun materiallar sarflandi	2310	1010-1090
Mahsulot olish uchun hayvonlarning so'yilishi	2310	1110,1120

Tugallanmagan mahsulotni qayta baholash		
a) qiymatning oshirilishi	2310	6230
b) qiymatning kamaytirilishi	3290	2310
Materiallar qiymatidagi farqlarni hisoblangan ulushlarda yordamchi ishlab chiqarish schotlariga hisobdan chiqarish	2310	1610
2.1-jadval davomi		
1	2	3
O'zida ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulotlarning yordamchi ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun sarflanishi	2310	2110
Umumishlab chiqarish xarajatlarining tegishli ulushi yordamchi ishlab chiqarish mahsulotlari, ish va xizmatlari tannarxiga kiritilishi	2310	2510
Yordamchi ishlab chiqarish mahsulotlarini tayyorlashdagi yaroqsiz mahsulotdan ko'rilgan yo'qotishlar ularning tannarxiga kiiritilishi	2310	2610
Kelgusi davr xarajatlarning ulushi yordamchi ishlab chiqarish mahsulotlari, ish va xizmatlari tannarxiga kiritilishi	2310	3110-3190, 3210-3290
Asosiy sexlarning mahsulotlari yordamchi ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun ishlatildi	2310	2810
Mol yetkazib beruvchilardan yordamchi ishlab chiqarishga moddiy qiymatliklar va xizmatlar (suv, bug', energiya va h.k) kelib tushdi	2310	6010, 6990
Qondirilmagan da'volar summasining yordamchi sexlarga tegishli bo'lgan qismi ularning mahsuloti, ish va xizmatlari tannarxiga hisobdan chiqarildi	2310	4860
Yordamchi ishlab chiqarishdagi sug'urta ajratmalari	2310	6510
Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha maqsadli davlat jamg'armalariga ajratmalar	2310	6520
Yordamchi ishlab chiqarish xodimlariga mehnat haqi to'lash bo'yicha summalarining hisoblanishi	2310	6710
Yordamchi ishlab chiqarishga ko'rsatilgan xizmatlari bo'yicha turli korxonalarga bo'lgan qarzlari	2310	6990
Olingan summadan ortiqcha xarajat qilganliklari uchun	2310	6970

hisobdor shaxslarga bo'lgan qarzlar		
Yordamchi ishlab chiqarishdagi tugallanmagan ishlab chiqarishning ortiqchasi kirim qilindi	2310	9390

*Manba: 21-sonli buxgalteriya hisobining milliy andozasi ma'lumotlari

Mazkur schotning krediti bo'yicha yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarining iste'molchilar o'rtasidagi taqsimoti aks ettiriladi.

Yordamchi ishlab chiqarish mahsulotlari tannarxining hisobi va kalkulyatsiyasi, aniq bir tarmoq uchun uning xususiyatlarini hisobga olgan holda belgilangan xarajat moddalarining nomenklaturasi bo'yicha amalga oshiriladi. Bunday xarajat moddalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- qaytariladigan chiqitlar chegirilgan materiallar;
- sotib olinadigan buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar;
- yoqilg'i;
- quvvat;
- ishlab chiqarish ishchilarining ish haqi;
- ish haqidan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar.

Yordamchi ishlab chiqarishda kalkulyatsiya obyektlari bo'lib tannarx hisoblanadigan mahsulotlar, ishlar va xizmatlarning turlari hisoblanadi. Kalkulyatsiya birligi tarzida odatda quyidagi tabiiy ko'rsatkichlar qo'llaniladi: ehtiyot qismlar yoki asboblarning bir donasi yoki 100 tasi; quvvatning 1 kV/soati, siqilgan havo yoki gazning 1 kub metri, avtotransportning 1 km bosib o'tgan yo'li va boshqalar.

Tugallanmagan ishlab chiqarish mavjud bo'lmagan oddiy yordamchi ishlab chiqarishda kalkulyatsiya birligi tannarxi «Yordamchi ishlab chiqarish» schotining debetida hisobga olingan xarajatlarni ishlab chiqarilgan mahsulot, ishlar va xizmatlar miqdoriga bo'lish bilan aniqlanadi.

Murakkab yordamchi ishlab chiqarishlarda buyurtmalar va barch mahsulot tannarxini hisoblashda tugallanmagan ishlab chiqarishning o'tkaziladigan qoldiqlari inobatga olinadi. Bir buyurtma bo'yicha mahsulotning bir necha birligi ishlab chiqarilgan taqdirda, birlik tannarxi xarajatlarning (tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlari o'zgarishini hisobga olgan holda) buyumlar miqdori (ishlar hajmi)ga nisbati bilan hisoblanadi. Buyurtma bo'yicha mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning bir necha turlari ishlab chiqarilgan taqdirda, xarajatlar ularning har biri orasida rejadagi (me'yoriy) tannarxga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Shuning bilan bir qatorda, yordamchi ishlab chiqarishlar bir-birining mahsulotlar va xizmatlarini o'zaro iste'mol qilish xususiyatlarini nazarda tutish lozim. Masalan, energetika sexi boshqa yordamchi ishlab chiqarishlarni quvvat bilan ta'minlaydi, transport bo'limi ta'mirlash sexiga kerakli bo'lgan materiallar tashishini amalga oshiradi va hokazolar. Shu bois, taqsimlanishi lozim bo'lgan xarajatlarni, ya'ni tegishli yordamchi ishlab chiqarishlar mahsulotlari haqiqiy tannarxini hisoblashda, odatda hisobni soddalashtirish uchun rejali tannarx bo'yicha baholanadigan muqobil xizmatlar qiymati e'tiborga olinishi lozim.

Misol. Korxonada o'z ehtiyojlari uchun yuklar tashishni amalga oshiradigan 10 ta yuk avtomobili mavjud. Oy mobaynida quyidagi xarajatlar amalga oshirilgan: yoqilg'i-moylash materiallarining sarf-xarajati – 2480 ming so'm, haydovchilarning ish haqi – 500 ming so'm, ijtimoiy sug'urta ajratmalari – 120 ming so'm, bir oyda avtomobillarning eskirishi – 15000 ming so'mni tashkil etgan, jami xarajatlar – 18100 ming so'm. Ushbu operatsiyalar quyidagi o'tkazmalar bilan aks ettiriladi:

Debet 2310- «Yordamchi ishlab chiqarish» - 18100 minng so'm.

Kredit 1030 – «Yoqilg'ilar» - 2480 ming so'm.

Kredit 6710 – «Mehnat haqi bo'yicha xodim bilan hisoblashlar» - 500 ming so'm.

Kredit 6520 «Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar» 120 ming so'm.

Kredit 0260 «Transport vositalarining eskirishi» - 15000 ming so'm.

Transport xo'jaligi bo'yicha xarajatlarning taqsimlanishi haqiqtda ishlangan avtomobil-soatdan kelib chiqib amalga oshirilgan. 10 ta avtomobil bir oy davomida 1230 soat ishlagan, jumladan: materiallar tashish bo'yicha – 470 soat; tayyor mahsulotni tashish bo'yicha – 600 soat; ta'mirlash sexiga xizmat ko'rsatish bo'yicha – 100 soat; asosiy vositalar chiqib ketishi bilan bog'liq tashish xizmatlari – 60 soat. 1 avtomobil – soat tannarxini aniqlaymiz ($18000/1230=14,715$ so'm/avt.soat). Avtoxizmatlar taqsimlanishi quyidagicha amalga oshiriladi:

-materiallarni tashish bo'yicha – 470 soat * 14,715= 6916 ming so'm;

-tayyor mahsulotlarni tashish bo'yicha – 600 soat * 14,715= 8829 ming so'm;

-ta'mirlash sexiga xizmat ko'rsatish bo'yicha – 100 soat * 14,715=1472 ming soat;

-asosiy vositalar chiqib ketishi bilan bog'liq tashish xizmatlari – 60 soat * 14,715=883 ming so'm.

Taqsimlangandan keyin 2310 “Yordamchi ishlab chiqarish” schoti quyidagicha yopiladi:

Debet 1010 – «Xom ashyo va materiallar» - 6916 ming so'm.

Debet 9410 – «Sotish xarajatlari» - 8829 ming so'm.

Debet 2311 – «Ta'mirlash ishlab chiqarilishi» - 1472 ming so'm.

Debet 9210 – «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» - 883 ming so'm.

Kredit 2310 – «Yordamchi ishlab chiqarish» - 18100 ming so'm.

Ta'mirlash ishlab chiqarishlarda xarajatlar har bir ta'mirlashga alohida ochilgan ishlab chiqarish buyurtmalari bo'yicha hisobga olinadi. Xizmat ko'rsatish sexlarining uskunalarining joriy soz holda ushlab turish bo'yicha yillik buyurtmalar ochiladi. Unda xarajatlar oy mobaynida jamlanadi va kalkulyatsiya qilinmasdan sex buyurtmachi xarajatlariga o'tkaziladi.

Chetda ishlab chiqarilgan va olingan quvvat, shuningdek uni iste'molchilarga berish bo'yicha hisob o'lchov asboblari ko'rsatkichlari bo'yicha, ular mavjud bo'lmagan taqdirda esa – uskuna quvvati va ishlash muddatida kelib chiqib hisob-kitob yo'li bilan amalga oshiriladi. Hisob-kitoblar va asboblari ko'rsatkichlariga

asosan quvvat iste'molchilar bo'yicha natural ko'rinishda taqsimlash qaydnomasi tayyorlanadi. Shuning o'zida quvvat sarf-xarajati maqsadli yo'nalishlar: uskunalarni ishlatish, umumishlab chiqarish yoki ma'muriy xarajatlar bo'yicha taqsimlanadi.

2.2. Korxona yordamchi-ko'makchi faoliyatining tahlili

“O'ztemiryo'lkonteyner” OAJ dagi yordamchi-ko'makchi foliyati mahsuloti (ish, xizmati)ning turlari – yuqori rentabelligidan tortib zarar bilan ishlaydiganlari, doimiy bajariladiganlaridan hamda bir martalisi mavjudligi bilan ajralib turadi. Ularning dinamikasi va ularga narx belgilash o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu moliyalashtirishni rejalashtirish va tashkillashtirishga, moddiy-texnik bazani rivojlantirishga ta'sir o'tkazadi. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish rejalarini tuzishda, xarajat va daromadlarni rejalashtirishda, narxlarni belgilashda, YoKFni rivojlantirish va takomillashtirish tadbirlarini ishlab chiqishda bu xususiyatlarni hisobga olish lozim.

Quyidagi 2.2-jadvalda yuoqridagilardan kelib chiqqan holda “O'ztemiryo'lkonteyner” OAJning 2009-2011-yillarda YoKFdan olgan daromadlarining tahlilini ko'rib chiqishimiz mumkin.

2.2-jadval

Korxona YKF dan olgan daromadi tahlili *

Ko'rsatkichlar	2009- yil	2010- yil	2011-yil	2009-yilga nisbatan o'sish		2010-yilga nisbatan o'sish	
				Mutloq (+/-)	Nisbiy (%)	Mutloq (+/-)	Nisbiy (%)
Konteyner yuk tashish ishlarini amalga oshirish	5375568	5471482	1755816	95914	1,7	-3711666	-68
Dezopromstansiya	231291	199675	163308	-31616	-13,7	-36367	-18,3
KALMAR ishi		195893	57057			-138836	-70,9
Tarozi o'lchov xizmatlari	305301	337146	351096	31845	10,4	13950	4,1
Avtotashuvlar	142708	92218	75176	-50490	-35,4	-17042	-18,5
Toshkent garaj	4867	44329	22341	39462	810	-21988	-49,7
ABZ	930380	622102	1114692	-308278	-33,2	492590	79,1
Obkleyka, plombalash	68576	72261	94582	3685	5,3	22321	30,8
Toshkent bojxona ombori	485470	777266	587337	291796	60,1	-718529	-24,5
Ulug'bek bojxona ombori	35693	34699	20644	-994	-2,8	-14055	-40,6
Buxoro bojxona ombori	-	92172	57563			-34609	-37,6
OKC	-	-	1054862	-	-		

*manba: Korxonaning buxgalteriya hisoboti ma'lumotlari (2009-2011-yillar)

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida biz korxona YoKF bo'yicha olgan daromadini tahlil qilib chiqamiz. Birinchi ko'rsatkichimiz konteyner yuk tashish ishlarini amalga oshirish bo'lib, bu ko'rsatkich bo'yicha 2010-yilda 2009-yilga nisbatan 95914 ming so'm ko'proq daromad yoki nisbiy ulushda oladigan bo'lsak 1,7% oshgan. 2011-yil 2010-yilga nisbatan bu ko'rsatkich keskin ravishda 3711666 mln so'mga, foizda ifodalaydigan bo'lsak 68% miqdorga kamaygan. Bunga olingan barcha daromadlarning 15% gina korxona ixtiyorida qolishi asosiy sabab bo'lib hisoblanadi.

Ikkinchi ko'rsatkichimiz dezopromstansiyaning ishini tashkil etishdir. Bu faoliyat turi bo'yicha daromad yildan yilga kamayib brogan va quyidagicha o'zgargan 2010-yilda 2009-yilga nisbatan 31616 ming so'mga ya'ni 13,7% kamaygan, 2011-yilda 2010-yilga nisbatan ham kamayish kuzatilgan, mutloq miqdorda 36367 ming so'mga nisbiy miqdorda esa 18,3% kamayganligini ko'rishimiz mumkin. Uchinchi ko'rsatkichimiz KALMAR ishi, 2011-yilni 2010-yilga solishtiradigan bo'lsak, korxona daromadi bu faoliyat turi bo'yicha -138836 ming so'mga ya'ni 70,9% kamayganligini ko'ramiz. To'rtinchi ko'rsatkichimizga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, tarozi o'lchov xizmatlari bo'yicha daromad summasi 2010-yilda 2009-yilga nisbatan 31845 ming so'mni va nisbiy miqdorda 10,4%, 2011-yilda 2010-yilga nisbatan ham 13950 ming so'mga va 4,1% ko'payganini ko'rishimiz mumkin. Demak, bu xizmat turiga talab bor va u bir maromda olib borilmoqda. Keyingi ko'rsatkichimiz avtotashuvlar, 2010-yilda bu ko'rsatkich bo'yicha daromad 50490 ming so'mga ya'ni 35,4% kamayganligini, 2011 yilda esa -17042 ming so'mga va 18,55 kamaygan. Bu ko'rsatkich bo'yicha daromadning yildan yilga kamayib ketishiga sabab bu faoliyat turiga ehtiyoj sezilmaganidir.

Yana bir ko'rsatkichimiz Toshkent garaji bunda 2010-yilda 2009-yilga nisbatan ijobiy holat kuzatilgan chunki 2010- yil 2009 -yilga nisbatan o'sish sur'ati yuqori bo'lgan ya'ni 39462 ming so'mga 810% o'sganini ko'rishimiz mumkin. 2011-yili esa aksincha 21988 ming so'mga 49,7% kamaygan. Keyingi

ko'rsatkichimiz ABZ. Bu ko'rsatkich bo'yicha ham birinchi yil o'sishni ikkinchi yil kamayishni kuzatamiz. Ko'rsatkichimizni aniq raqamlarda ifodalaydigan bo'lsak, mutloq miqdorda 308278 ming so'm, nisbiy miqdorda 33,2% kamaygan. 2011-yilda 2010- yilga nisbatan esa mutloq miqdorda 492590 ming so'mga, nisbiy miqdorda 79,1% oshgan. Navbatdagi ko'rsatkichimiz obkleyka, plombalash. Bu ko'rsatkich bo'yicha har yili o'sish kuzatilgan, 2010- yili 2009- yilga nisbatan 3685 ming so'mga va 5,3% oshgan. 2011-yili esa 2010-yilga nisbatan 22321 ming so'mga va 30,8% oshgan. Keyingi yordamchi ko'makchi faoliyatimiz Toshkent bojxona ombori 2010- yilda 291796 ming so'mga ya'ni 60,1% oshgan. 2011-yilda esa aksincha 189933 ming so'mga yoki 24,5% kamaygan. Ulug'bek bojxona ombori bo'yicha daromad miqdori 2010- yili 2009-yilga nisbatan 994 ming so'mga yoki 2,8% kamaygan, 2011 yili ham 14055 ming so'mga yoki 40,6% kamayganligini ko'rishimiz mumkin. Buxoro bojxona ombori bo'yicha daromad 2011-yilda 34609 ming so'mga va 37,6% kamaygan.

“O'ztemiryo'lkonteyner” OAJning 2009-2011-yillarda YoKFDan bo'yicha qilgan xarajatlari quyidagi 2.3-jadvalda tahlil qilingan.

2.3-jadval

Korxona YoKF bo'yicha xarajatlari tahlili *

Ko'rsatkichlar	2009-yil	2010-yil	2011-yil	2010-yilga nisbatan o'zgarish		2011-yilga nisbatan o'zgarish	
				Mutloq, (+/-)	Nisbiy, (%)	Mutloq, (+/-)	Nisbiy (%)
Konteyner yuk tashish ishlarini amalga oshirish	1310967	1066170	492495	-818472	-62,4	-573675	-53,9
Dezopromstansi -ya	203653	173551	167624	-36029	-17,7	-5927	-3,5
KALMAR ishi	-	-	-				
Tarozi o'lchov xizmatlari	279804	302283	341895	62091	22	39612	13,1
Avtotashuvlar	110591	143442	178133	67542	61,1	34691	24,1
Toshkent garaj	88932	83201	94205	5273	5,9	11004	13,2
ABZ	959402	646209	1084015	124613	12,9	437806	67,7
Obkleyka, plom balash	-	-	-				
Toshkent bojxona ombori	-	-	175018				

Ulug'bek bojxona ombori	-	-	29527				
Buxoro bojxona ombori			24454				
OKC	57470	80587	876453	818983	1425	795866	987,5

*manba: Korxonaning buxgalteriya hisoboti ma'lumotlari (2009-2011-yillar)

Yuqoridagi 2.3-jadvalning 2011-yilda “O'ztemiryo'lkonteyner” OAJ xarajatlari aksariyat hollarda oldingi yillarga nisbatan ortib ketgan. Xususan, tarozida o'lchash xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha xarajatlar 2009-yilga nisbatan 62091 ming so'mga, ya'ni 22% oshgan bo'lsa, 2010-yilga nisbatan bu ko'rsatkich 39612 ming so'mga (13,1%)ga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

Avtotashuvlar bo'yicha xarajatlar 2011-yilda 2009-yilning 110591 ming so'm xarajatidan 61,1% ga oshib (67542 ming so'm), 178133 ming so'mni tashkil qilgan, 2010-yilga nisbatan esa avtotashuvlar xarajati 34691 ming so'mga, ya'ni 24,1% ga ko'paygan.

Toshkent garaji va ABZ xarajatlari mos ravishda 2011- yilda 2009-yilga nisbatan 5273 ming so'm (5,9%)ga 124613 ming so'm (12,9%)ga oshgan bo'lsa, 2010-yilga nisbatan bu xarajatlar yanada oshgan va mos ravishda 110004 ming so'm (13,2%) va 43786 ming so'm (67,7%) ga oshganini kuztish mumkin. Eng katta xarajat o'sishi OKC bo'yicha bo'lib, 2009- yilga nisbatan 818983 ming so'm, ya'ni 1425%, 2010- yilga nisbatan esa 2011-yilda 795866 ming so'm (987,6%)ga xarajatlar oshishi kuzatiladi. Konteynerlarda yuk tashish ishlarini amalga oshirish va dezopromstansiya xarajatlarida esa aksincha pasayish kuzatiladi. Konteynerlarda yuk tashish ishlarini amalga oshirish bo'yicha 2009-yilda 898472 ming so'mga, ya'ni 62,4% ga kamaygan bo'lsa, 2010-yilga nisbatan esa 53,8% (573675ming so'mga) kamaygan. Dezopromstansiya bo'yicha esa 2009-yilga nisbatan 36029

ming so'm (17,71%)ga, 2010-yilga nisbatan esa 3,4%, ya'ni 5927 ming so'mga kamayganligini kuzatish mumkin.

2009-2011-yillar davomida "O'ztemiryo'lkonteyner" OAJ olgan foydasi quyidagi 2.4-jadvalda tahlil qilingan.

2.4-jadval

Korxona foydasi tahlili *

Ko'rsatkichlar	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2010-yilga nisbatan o'zgarish		2011-yilga nisbatan o'zgarish	
				Mutloq, (+/-)	Nisbiy, (%)	Mutloq, (+/-)	Nisbiy, (%)
Konteyner yuk tashish ishlarini amalga oshirish	4064601	4405312	1263321	-2801280	-6,9	-3141991	-71,4
Dezopromstansiya	27638	26124	-4316	-31954	-84,4	-30440	83,5
KALMAR ishi		195893	57057			-138836	-70,9
Tarozi o'lchov xizmatlari	25497	34863	9201	-16296	-64	-25662	-73,7
Avtotashuvlar	32117	-51224	-102957	-135074	-220	51733	100,9
Toshkent garaj	-84065	-38872	-71864	-155929	-14,6	-110736	84,8
ABZ	-29022	-24107	30677	59699	6,7	54784	27,2
Obkleyka,plombalash	68576	72261	94582	26006	37,9	22321	30,8
Toshkent bojxona ombori	485470	777266	412319	-73151	-15,1	-364947	-47
Ulug'bek bojxona ombori	35693	34699	-8883	-44576	-124,9	-43582	-125,6
Buxoro bojxona ombori	-	92172	33109	-	-	-59063	-64,1
OKC	-57470	-80587	178409	235879	210	258996	121,3

*manba: Korxonaning buxgalteriya hisoboti ma'lumotlari (2009-2011-yillar)

2011-yilda korxonaning YoKF turlari bo'yicha natijasini tahlil qiladigan bo'lsak, "O'ztemiryo'lkonteyner" OAJ YoKFning ko'rsatkichlari 2011- yilda aksariyat hollarda foyda bilan chiqqan bo'lsada, (konteyner yuk tashish ishlarini amalga oshirish, KALMAR ishi, o'lchov xizmatlari, ABZ, plombalash, Buxoro va Toshkent bojxona omborlari va OKC), 2009 va 2010- yillarga nisbatan o'zgarishi salbiy hisoblanadi, ya'ni o'tgan yillarga nisbatan foyda kamaygan. Xususan, konteynerda yuk tashish ishlarini amalga oshirish bo'yicha 2011-yilda 2009-yilga nisbatan foydaning kamayganligini 69% (2801280 ming so'm)ni 2010-yilga nisbatan esa 71,4% (314199 ming so'm)ni tashkil qilgan.

Dezopromstansiya bo'yicha foyda 2009-yilga nisbatan 31954 ming so'm (84,4%)ga, 2010-yilga nisbatan esa 21808 ming so'm, ya'ni 83,5% kamaygan.

O'lchash xizmatlari va avtotashuvlarning foydasi ham mos ravishda 2009-yilga nisbatan 16296 ming so'm (64%) va 130074 ming so'm (420%)ga kamayganligini kuzatsak, 2010- yilga nisbatan esa 25662 ming so'm (73,7%)ga va 51733 ming so'm (100,9%)ga kamayganligini ko'rishimiz mumkin. Toshkent va Ulug'bek bojxona omborlarida ham foyda kamayishi kuzatilib, bu kamayish 2009- yilga nisbatan Toshkent bojxon omborida 73151 ming so'mni, ya'ni 15,1% ni;

-Ulug'bek bojxona omborida esa 44576 ming so'mni, ya'ni 124,9% ni tashkil qilgan bo'lsa; 2010-yilga nisbatan esa

-Toshkent bojxona omborida foyda kamayishini 364947 ming so'm (47%)ni;

-Ulug'bek bojxona omborida 43582 ming so'm (125,6%)ni;

-Buxoro bojxona omborida esa 59063 ming so'm (64,1%)ni tashkil qilgan.

Toshkent garaji, ABZ, plombalash va OKC ishlari bo'yicha o'tgan yilga nisbatan foydaning o'sishi kuzatiladi, ya'ni

-Toshkent garaji bo'yicha 2009-yilga nisbatan foyda 12201 ming so'm, ya'ni 14,5% ga 2010-yil bo'yicha esa 32992 ming so'm, ya'ni 84,8 ga oshgan;

-ABZ va plombalash ishlari bo'yicha foydaning oshishi mos ravishda 2009-yilga nisbatan 59699 ming so'm (5,7%) va 26006 ming so'm (37,9%)ga,2010-yilga nisbatan esa 54784 ming so'm (27,2%) hamda 22321 ming so'm (30,8%)ga teng bo'lgan.

-OKC bo'yicha foyda 2009 -yilga nisbatan 235879 ming so'mga,ya'ni 210% ga va 2010- yilga nisbatan 258996 ming so'm (121,3%)ga oshgani ko'rinib turibdi.

III Bob. Korxona yordamchi-ko'makchi faoliyatining samaradorligini va rentabelligini hisoblash usullari

3.1.Korxona yordamchi-ko'makchi faoliyati samaradorligi.

Korxonaning kelajakdagi rejalarini oqilona tuzish uchun korxonaning moliyaviy holatini to'g'ri baholay olish zarur. Bu o'z navbatida korxonaning moliyaviy holatini yaxshilash va faoliyatining samaradorligini oshirish,tezkorlik bilan va to'g'ri qaror qabul qilishga ta'sir qiladi.

Korxonaning moliyaviy holati samaradorligini baholashni asosiy vositalar samaradorligini tahlil qilishdan boshlaymiz. Asosiy vositalarning iqtisodiy samaradorligi hisobot davrida olingan iqtisodiy samaraning asosiy vositalarni sotib olishga sarflangan xarajatlarga nisbati bilan aniqlanadi. Iqtisodiy samara sifatida yillik sotilgan mahsulotning qiymati (temir yo'l transportida – hajm ko'rsatkichlari) yoki foyda summasi olinishi mumkin. Odatda mahsulot hajmi fond qaytimini hisoblashda,foyda esa asosiy vositalar rentabelligini hisoblashda ishlatiladi. Xarajatlar sifatida asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati olinadi. Ishlab chiqarish samaradorligi asosiy vositalardan foydalanish darajasiga bog'liq. Asosiy vositalardan qanchalik samarali foydalanilsa,mehnat unumdorligi oshadi,tannarx pasayadi, foyda va rentabellik oshadi.

Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligining asosiy ko'rsatkichlaridan biri fond qaytimi (F_{qay}) bo'lib,u korxona moliyaviy natijasini ishlab chiqarish vositalarining o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish orqali topiladi.

$$= \frac{ST}{AV}$$

$$F_{qay} \quad ;$$

Bunda: ST– sotishdan olingan sof tushum;

AV – asosiy ishlab chiqarish vositalarining o’rtacha yillik qiymati.

Fond qaytimi bilan birgalikda asosiy vositalarni samarali ishlatishning asosiy ko’rsatkichi sifatida fond sig’imi ($F_{sig'}$), fond bilan qurollanganlik (F_{qur}), fond bilan ta’minlanganlik ($F_{ta'm}$) ko’rsatkichlari ham ishlatiladi.

$$= \frac{AV}{ST}$$

$$F_{sig'} \quad ;$$

$$F_{qur} = \frac{AV}{L}$$

$$F_{ta'm} = \quad ;$$

bunda: K_i – ishchilar soni;

L – temir yo’ldan foydalanish uzunligi.

Keltirilgan ko’rsatkichlar odatda dinamikada tahlil qilinadi ularning dinamikasining tendensiyasi o’rganiladi.

Quyidagi 3.1-jadvalda ushbu ko’rsatkichlarning “O’ztemiryo’l konteyner” OAJdagi YoKF bo’yicha qiymatlari keltirilgan.

Korxonaning YoKF bo'yicha asosiy vositalari samaradorligi ko'rsatkichlari*

Ko'rsatkichlar	2010 yil	2011 yil	O'zgarish	
			Mutloq (+/-)	Nisbiy (%)
Sotishdan tushgan sof tushum, minh so'm	20230747	20868750	638003	3.2
Asosiy vositalarning o'rtacha qiymati	5126237	9934029	4807792	93.8
Ishchilar soni, kishi	763	810	47	6.2
Fond qaytimi	3.9	2.1	-0.2	-46.2
Fond sig'imi	0.3	0.5	0.2	66.7
Fond bilan qurollanganlik, AV so'm/kishi	6718.5	12264.2	5545.7	82.5

*Manba: Korxonaning buxgalteriya hisobi ma'lumotlari

Yuqoridagi jadvaldan shuni ko'rish mumkinki, korxonada fond qaytimi 2011-yilda 2010-yilga nisbatan 46.2% ga kamaygan. Fond qaytimi 1000so'mlik asosiy vositaga qancha sotishdan olingan sof tushum summasi to'g'ri kelishini bildiradi. Bunda fond qaytimining kamayishiga sabab asosiy vositalarning o'rtacha qiymatining 2011-yilda 2010-yilga nisbatan deyarli 94% ga oshganligidir.

Fond sig'imi esa 1000 so'm sotishdan sof tushum olish uchun qanday qiymatda asosiy vosita to'g'ri kelishini bildiradi. "O'ztemiryo'lkonteyner" OAJning YoKF bo'yicha 2011-yilda fond sig'imi 2010-yilga nisbatan 66.7%ga oshgan. Bunda sotishdan sof tushumning 2010-yilga nisbatan 638003 ming so'mga, asosiy vositalar o'rtacha qiymatining 4807792 ming so'mga oshgani fond sig'imining ham oshishiga olib kelgan va asosiy vositalar o'rtacha qiymati sotishdan sof tushum hajmining o'sishidan 29 marta tezroq o'sgan.

Fond bilan qurollanganlik koeffitsiyenti 1 ishchiga to'g'ri keluvchi asosiy vositalarning o'rtacha qiymatini bildirib, "O'ztemiryo'lkonteyner" OAJda bu ko'rsatkich 2010-yilga nisbatan 82.5 % ga oshganini ko'rish mumkin. Bunda

asosiy vositalar o'rtacha qiymatining o'sishi ham, ishchiarning soni o'sishi ham ta'sir qilgan.

Korxona samaradorligini tahlil qilishda aylanma vositalardan foydalanish samaradorligi ham muhim ahamiyatga ega. Aylanma vositalar korxonaning ishlab chiqarish ehtiyojlarini pul va moddiy resurslari bilan ta'minlash va hisob-kitoblarning o'z vaqtidaligi va to'liqligini ta'minlashga mo'ljallangan. Korxonaning aylanma vositalarga bo'lgan ehtiyoji ishlab chiqarish hajmiga to'g'ri proporsional va aylanma vositalarning aylanish tezligiga teskari proporsional. Aylanishlar soni qancha ko'p bo'lsa, aylanma vositalarga ehtiyoj kamayadi va ulardan foydalanish sekinlashadi.

Aylanma vositalarning aylanuvchanligi pul ko'rinishida, zaxira va moddiy xizmatlarga aylanishi va pul ko'rinishida korxona hisob raqamiga tushishigacha bo'lgan davr bilan aniqlanadi.

Aylanma vositalarning aylanuvchanligini – baholash uchun quyidagi ko'rsatkichlar aniqlanadi:

- bir aylanishning davomiyligi;
- aylanish koeffitsenti;
- mustahkamlik koeffitsenti;
- iqtisodiy samara.

Aylanish davomiyligi ma'lum davrdagi kunlar bilan aniqlanadi. Aylanish davri qancha qisqa bo'lsa, korxonaning moliyaviy holatiga ijobiy ta'sir qiladi.

Aylanish koeffitsenti – aylanish vositalarining tahlil qilinadigan davrdagi aylanishlar soni bo'lib, quyidagicha topiladi:

$$K_{ob. os} = ST / C_{oct}$$

Bunda C_{oct} – davrdagi aylanish vositalarining o'rtacha qoldig'i;

ST – sotishdan tushum.

Bu koeffitsent 1 so'm aylanish vositaga qancha sotishdan tushum hajmi to'g'ri kelishini bildiradi. Bir aylanishning kunlardagi davomiyligi aylanishga qo'yilgan

pul mablag'larining xo'jalik aylanishiga qaytib kelish muddatini tavsiflaydi va quyidagi formula bilan topiladi:

$$O_O = \text{Davrdagi kunlar soni} / K_{ob.os}$$

Mustaqillik koeffitsenti (K_3) bir so'mlik sotilgan mahsulotga aylanma vositalar qiymatini bildiradi va quyidagicha topiladi:

$$K_3 = C_{oct} / ST$$

Aylanishning tezlanishi natijasidagi iqtisodiy samara mablag'larning aylanishdan ozod chiqishi va foydaning oshishi bilan ifodalanadi va quyidagi formula bilan topiladi:

$$\Xi = (O_{\pi 1} \times O_{\pi 0}) \times N / D$$

Bunda: $O_{\pi 1}$ – hisobot davridagi bir aylanishning davomiyligi;

$O_{\pi 0}$ – o'tgan yildagi bir aylanishning davomiyligi;

D – tahlil qilinayotgan yildagi kalendar kunlar soni;

N1 – tahlil qilinayotgan davrdagi sotishdan tushum.

Quyidagi 3.2-jadvalda korxonaning 2011-yildagi YoKF bo'yicha aylanma vositalarning samaradorlik ko'rsatkichlari keltirilgan.

3.2-jadval

“O'ztemiryo'lkonteyner” OAJning YoKF bo'yicha aylanma vositalarning samaradorlik ko'rsatkichlari *

Ko'rsatkichlar	2010-yil	2011-yil	O'zgarish	
			Mutloq (+,-)	Nisbiy (%)
1. Sotishdan sof tushum	20230747	20868750	638003	3.2
2. Aylanma mablag'lar	3308948	47641293	14612345	56
3. Aylanish koeffitsiyenti	0.6	0.4	-0.2	-33.3
4. Aylanish davomiyligi	608	912	304	50
5. Mustahkamlik koeffitsiyenti	1.6	2.3	0.7	56

*Manba: Korxonaning buxgalteriya hisobi ma'lumotlari

“O'ztemiryo'lkonteyner” OAJning YoKF bo'yicha 2011-yilda aylanma vositalaring aylanish koeffitsiyenti 0.2 (33.3%) ga pasaygan bo'lib, bunda aylanma vositalaring o'rtacha qiymati sotishdan sof tushum hajmiga nisbatan 17.5 marta

tezroq o'rganiligi bilan tavsiflanadi. Aylanish davomiyligi esa o'tgan yilga nisbatan 304 kunga ko'p bo'lib, bu salbiy hol hisoblanadi. Mustahkamlik koeffitsienti esa o'tgan yilga nisbatan 56%ga oshgan. Bunda aylanish vositalarining mustahkamlanish darajasi sotishdan sof tushum hajmining oshishiga bog'liq.

Korxonaning moliyaviy iqtisodiy holatini baholash uchun asosiy ko'rsatkichlar bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

- a) to'lov qobiliyati koeffitsienti – K_{m}
- b) aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik koeffitsienti – K_{oc}
- c) xajlatlar va aktivlar rentabelligi koeffitsienti – $K_{\text{pp}}, K_{\text{pa}}$

Korxonaning moliyaviy barqarorligi uning moliyaviy-xo'jalik holati ko'rsatkichlari bilan baholanadi. Korxonaning moliyaviy barqarorligi 4 ko'rinishda baholanadi.

Mutloq barqarorlik – korxona zahiralar va kelgusi xarajatlari uchun ortiqcha pul mablag'lariga ega bo'lganda bo'ladi. Bunda korxonaning tashqi qarzlariga ehtiyoji bo'lmaydi va yuqori to'lov qobiliyatiga ega bo'ladi.

Me'yoriy barqarorlik – korxonaning zahira va xarajatlari o'z aylanma vositalar bilan qoplanganda bo'ladi. Joriy faoliyat yuqori daromadlilik bilan ajralib turadi.

Korxona zaxira va xarajatlarini qoplashda qarz mablag'larini jalb qilsa, nobarqaror hisoblanadi.

Korxonaning zahira va xarajatlari korxonaning ixtiyoridagi barcha mablag'lari bilan ham qoplanmasa inqirozli hisoblanadi.

3.3-jadval

“O'ztemiryo'lkonteyner” OAJning moliyaviy barqarorligi tahlili (ming so'm) *

Ko'rsatkichlar	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga	O'zgarash	
			Mutloq (+/-)	Nisbiy (%)
O'z mablag'lari manbalari	26633504	29839326	3205822	12
Uzoq muddatli aktivlar	7751832	13877540	6125708	79
O'z aylanma mablag'larining mavjudligi	18881672	15961786	-2919886	-15,5
Uzoq muddatli kreditlar va	-	-	-	-

qarz mablag'lari				
Zaxira va xarajatlarni shakllantirishning o'z va qarz mablag'lari manbalari mavjudligi	18881672	15961786	-2919886	-15,5
Qisqa muddatli kreditlar va qarz mablag'lari	-	-	-	-
Zaxira va xarajatlarni shakllantirish manbalarining umumiy hajmi	18881672	15961786	-2919886	-15,5
Zaxira va xarajatlarning umumiy hajmi	1253468	710703	-542765	-43,4
O'z aylanma mablag'larning ortiqcha (+) yoki kamligi (-)	17628204	15251083	-2377121	-13,5
Zaxira va xarajatlarni shakllantirish manbalarining umumiy hajmi ortiqcha (+) yoki kamligi (-)	17628204	15251083	-2377121	-13,5
Moliyaviy holat ko'rinishi	barqaror	barqaror	x	x

*manba: "O'ztemiryo'lkonteyner" OAJ buxgalteriya balansining 2011-yil ma'lumotlari

Yuqoridagi jadvaldan shuni ko'rish mumkinki, "O'ztemiryo'lkonteyner" OAJ 2011-yilda barqaror bo'lgan, chunki hisobot davrida aylanma aktivlar o'z aylanma mablag'lar bilan to'laligicha qoplangan va yil oxirida 15251083 ming so'mni tashkil qilgan. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, o'z aylanma mablag'ning yil oxiriga kelib 13.5%ga kamayishi (2377121 ming so'm) joriy aktivlarning 542765 ming so'mga kamayishi (43.4%) bilan taqqoslansa salbiy holatni vujudga keltirishi mumkin, ammo shu holatda ham korxona joriy aktivlari o'z aylanma mablag'lardan ko'pligini kuzatish mumkin.

3.1. Korxona yordamchi-ko'makchi faoliyat rentabelligi.

Foydaning absolyut summasi, jamg'rish manbai sifatida ko'rib chiqilganda favqulodda muhim. Lekin xo'jalik yuritish samaradorligini ifodalashda foydaning ko'rsatkichi yetarli emas:uning o'sishiga kapital qo'yilmalarning turli miqdorlarida erishish mumkin.

Korxonaning xo'jalik yuritish samaradorligini, mahsulotlarning ayrim turlarining samaradorligini bilish uchun sotilgan mahsulot birligiga, xarajat

birligiga,qo'yilgan kapital birligiga to'g'ri keladigan nisbiy ko'rsatkich aniqlanadi. Bunday nisbiy ko'rsatkich rentabellik deb ataladi.

Rentabellik – korxona,birlashma,tarmoq ishining samaradorligining kompleks ko'rsatkichlaridan biri. U moddiy,mehnat va pul resurslarining ishlatish darajasini aks ettiradi. Rentabellik ko'rsatkichi sotilayotgan mahsulot,bajarilayotgan ish va xizmatlarning ayrim turlarining samaradorligini tavsiflash uchun keng qo'llaniladi.

Temir yo'l transportida tashish jarayonini tashkil etish va yordamchi-ko'makchi faoliyat samaradorligini ko'rib chiqishda yuk va yo'lovchi tashishlarning,yordamchi-ko'makchi faoliyatning ishlari va xizmatlarining,ortish-tushirish,ta'mirlash va boshqa tur ishlarining rentabelligi aniqlanadi.

Bu ko'rsatkichlar,odatda,o'tgan davr bilan solishtirishda qo'llaniladi. Bir necha yil uchun hisobot ma'lumotlarining mavjudligi rentabellik ko'rsatkichi dinamikasini o'zgarishini kuzatishga,yuzaga kelayotgan rentabellik tendensiyasini aniqlashga imkoniyat yaratadi va ularni bir qancha iqtisodiy masalalarni hal etishda bilish muhim.

Renntabellik turli yo'llar bilan aniqlanadi. DATK korxonalarida sotish rentabelligi,ishlab chhiqarish xarajatlari rentabelligi,barcha rentabelligi tez-tez ishlatilib turiladi.

Sotish rentabelligi (yalpi yoki sof) foydani sotilgan mahsulot hajmiga bo'lish orqali hisoblanadi.

$$P_{\text{real}} = \frac{SF(YaF)}{SST} * 100\% ;$$

bunda: SF – sof foyda;

YaF – yalpi foyda;

SST – sotishdan sof tushum.

Sotish rentabelligi 1 so'm sotilgan mahsulot uchun qancha foyda olishini bildiradi. “O'ztemiryo'lkonteyner” OAJda 2011-yilda sotish rentabelligi quyidagini tashkil qilgan:

$$P_{\text{real}} = \frac{7907070}{20868750} * 100\% = 38\%;$$

Demk, korxona 1 so'm sotgan mahsuloti uchun 38 tiyin sof foyda olgan.

Ishlab chiqarish xarajatlari rentabelligi (yalpi yiki sof) foydani sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga bo'lish orqali aniqlanadi:

$$P_{\text{ish,ch}} = \frac{\text{SF(YaF)}}{\text{IT}} * 100\% ;$$

bunda: IT – ishlab chiqarish tannarxi;

Ishlab chiqarish xarajatlari rentabelligi korxona 1 so'm ishlab chiqarish xarajatlariga qancha tiyin foda oliishini bildiradi. Bu ko'rsatkich YoKF mahsulotining birligiga shartnomaviy narx belgilashda keng qo'llaniladi va korxonada 2011-yilda quyidagini tashkil qilgan:

$$P_{\text{ish,ch}} = \frac{7907070}{9538774} * 100\% = 83\%$$

Bundan ko'rinib turibdiki, "O'ztemiryo'lkonteyner" OAJ 1 so'mlik ishlab chiqarish xarajati uchun 83 tiyin sof foyda olgan.

Barcha aktivlar rentabelligi sof foydani korxona aktivlarining o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish orqali aniqlanadi. Aktivlar – buxgalteriya balansining chap tomoni, unda korxonaning mablag'lari tarkibi, turlari va joylashtirilishi bo'yicha gruppalariga bo'linadi. Aktivlar joriy va uzoq muddatli aktivlarga bo'linadi.

Joriy aktivlar yoki aylanma mablag'lar o'z ichiga pul mablag'larini (kassada, bankda) va ularning ekvivalentlari (qimmatli qog'ozlar), tovar-moddiy zahiralar, debitorlik qarzlari oladi.

Uzoq muddatli aktivlar – asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning qoldiq qiymati, uzoq muddatli investitsiyalar.

$$P_{\text{aktivlar}} = \frac{\text{SF}}{\text{A}} * 100\% ;$$

Bunda: A- balans aktivining qiymati.

Bu koeffitsent mablag'larni jalb qilish manbalaridan qat'iy 1 so'm foyda olish uchun qancha so'm kerak bo'lganligini ko'rsatadi.

“O'ztemiryo'lkonteyner” OAJda bu ko'rsatkich quyidagicha bo'lgan:

$$P_{\text{aktivlar}} = \frac{7907070}{61518833} * 100\% = 13\%$$

Demak, 2011-yilda korxona 13%li aktivlar rentabelligiga erishgan bo'lib, bu mablag'larni jalb qilish manbalaridan qat'iy 1 so'm foyda olish uchun 13 so'm kerak bo'lganligini ko'rsatadi.

Temir yo'l kompaniyasining yo'rdamchi-ko'makchi faoliyat bo'linmalarining ishlari va xizmatlari rentabelligini o'rganish ularning darajasini sezilarli darajada turlichaligini ko'rsatadi. Aksariyat hollarda yuz foizlab hisoblanadigan ish va xizmatlarning turlarining haddan tashqari yuqori rentabellik darajasi shartnomaviy narxlarning shakllantirishning takomillashganligidan dalolat beradi.

Yuqori tashish rentabelligi ko'rsatkichlari yuk jo'natuvchilar tomonidan tashib berilgan ishlar uchun vaqtida haq to'lanishida, korxona o'zining xarajatlarini moliyalashtirish bilan hech qanday muammolar bo'lmasligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish moddiy xarajatlari narxlarning barqarorligida korxona yuk tashish tariflarini pasaytirish to'g'risida muammoni xavfsiz hal etishi mumkin.

Yuk tashish rentabelligi – ko'p omillarning ta'sirini aks ettiruvchi moddiy va mehnat resurslarini samarali ishlatishning kompleks, ya'ni jamlama ko'rsatkichi. Asosiylari: sotish hajmi, yuk tashish ishlariga tariflar darajasi, tashish tannarxi.

Yuk tashish rentabelligining erishilgan darajasini pasaytirishga yo'l qo'ymaslik uchun yuk tashish hajmlarini oshirishga hamda ularni tannarxini pasaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish kerak.

Mundarija.

Kirish.....	3
I Bob. Korxona xo'jalik faoliyati va uning tahlili.....	6
1.1. Korxona umumiy faoliyati va ish hajmi ko'rsatkichlari.....	6
1.2. Korxona yordamchi-ko'makchi faoliyatining tahlili.....	15
II Bob. Korxona yordamchi-ko'makchi faoliyatining buxgalteriya hisobi.....	22
2.1. Buxgalteriya hisobi xususiyatlari va hisob siyosati.....	22
2.2 Korxona yordamchi-ko'makchi faoliyati turlari va buxgalteriya hisobi.....	30
III Bob. Korxona yordamchi-ko'makchi faoliyatining samaradorligini va rentabelligini hisoblash usullari.....	37
3.1. Korxona yordamchi-ko'makchi faoliyati samaradorligi.....	37
3.2. Korxona yordamchi-ko'makchi faoliyati rentabelligi.....	43
Xulosa va takliflar.....	47
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	49

Foydalaniladigan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining "Temir yo'l transporti to'g'risida"gi Qonuni- 1999 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining Temir yo'l transportiga oid me'yoriy hujjatlar.
3. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni- 1996 yil.
4. "Mahsulot (ishlar,xizmatlar)ni ishlab chiqish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom" 1999 yil.
5. O'zbekiston Respublikasining "Soliq kodeksi", 2007 yil.
6. Karimov A., Ismoilov F., Avloqulov A., "Buxgalteriya hisobi" Toshkent, 2004 yil.
7. Silayev N.I. "Temir yo'l moliyasi" Toshkent, 2007 yil.
8. Umarova M. "Buxgalteriya hisobi" Toshkent, 2005 yil.
9. G'ulomova F.G'. "Buxgalteriya hisobini mustaqil o'rganish uchun qo'llanma". Toshkent: «NORMA» 2010 yil.
10. To'laxodjayeva M.M. "Audit" 1,2-jildlar, Toshkent: «NORMA» 2008 yil.
11. Красов А.П. "Бухгалтерский финансовый учет на железнодорожном транспорте" М: Транспорт, 2008.
12. Internet saytlari. [www. Norma.uz](http://www.Norma.uz), Lex.uz, www. Ziyonet.uz, www.tashiit.uz.

Xulosa va takliflar

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining qaror toptirilishi, ko'p ukladli iqtisodiyotning vujudga keltirilishi barcha jabhada bo'lgani kabi, buxgalteriya hisobi borasida ham ulkan o'zgarishlarning sodir bo'lishiga olib keldi. Ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga asoslangan iqtisodiyot sharoitida shakllangan korxona, tashkilot va muassasalardagi buxgalteriya hisobini yuritish tizimi jahon iqtisodiy tizimiga dadil kirib borayotgan mamlakatimiz uchun zamonaviy talablarga javob bera olmay qolmoqda. Keyingi yillar mobaynida xalqaro andozalarga to'la-to'kis javob beruvchi buxgalteriya hisobi tizimini yaratish borasida ko'pgina islohatlar olib borilmoqda.

Hozirda bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarning maqsadi daromad olishdir. Shu bois temir yo'l transporti ham asosiy faoliyat yuk va yo'lovchi tashishdan tashqari yordamchi-ko'makchi faoliyat bilan shug'ullanadi. Temir yo'l transporti korxonalarining yordamchi-ko'makchi faoliyati mahsulotlari, ish va xizmatlarini realizatsiya qilish faqatgina tashish jarayoniga xizmat qilibgina qolmay, balki foydani shakllantirishning asosiy manbai ham hisoblanadi.

Yakuniy bitiruv malakaviy ishini yozish davomida quyidagi xulosalarga kelindi:

- Korxonaning 2011-yildagi yakuniy moliyaviy natijasi rejaga nisbatan ham, o'tgan yilga nisbatan ham oshib bajarilgan bu ijobiy holat.
- YKF bo'yicha (konteynerlarda yuk tashish ishlarini amalga oshirish) daromad miqdori 2011-yilda 2009, 2010-yillarga nisbatan keskin kamaygan. DATK bilan tuzilgan shartnomaga ko'ra olingan daromadning 15% miqdori korxona ixtiyorida qoladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- YKF mahsulot va xizmatlari tannarxini pasaytirish orqali tashish tannarxini pasayishiga olib keladi. Chunki YKF mahsulotlari va xizmatlari tashish jarayonining ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi;
- Yordamchi-ko'makdosh faoliyatni kengaytirish, bu faoliyat turidan keladigan foyda va korxona samarasini oshirish maqsadida kommunikatsion texnologiyalar tizimini kengaytirish va bu sohada servisni yaxshilash;
- Korxona YKF iqtisodiyotining asosiy masalalarini hal etish uchun yuqori malakali mutaxassis vat emir yo'l transportining keng doiradagi ishchi xodimlarini taklif etish orqali kelajakda korxona faoliyatini takomillashtirish.